

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTAMAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida

5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (O‘zbek tili) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr akademik darajasini olish uchun

Mahmudboyeva Feruza Tolibjon qizining

**“UMUMIY O‘RTA TA‘LIMDA TO‘RA SULAYMON IJODINI O‘RGANISH”
MAVZUSIDAGI**

BITIRUV-MALAKAVIY ISHI

Dastlabki himoyada muhokama
qilindi va himoyaga tavsiya etildi.

"O‘zbek tili va adabiyoti" kafedراسي
mudiri, f.f.n., dots.

_____ O.Fayzullayeva

Bayonnoma № _____

“ _____ ” _____ 2020- y.

Himoyaga tavsiya etaman.
Fakultet dekani, f.f.n., dots.

_____ M.Mamatqulov

“ _____ ” _____ 2020- y.

Ilmiy rahbar, f.f.n.,

_____ G.Qo‘yliyeva

“ _____ ” _____ 2020 y.

I. KIRISH.....

II. ASOSIY QISM.....

I BOB. O‘QUVCHILARNING MA’NAVIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHDA TO‘RA SULAYMON IJODINING O‘RNI.....

II BOB. UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA XALQ SHOIRI TO‘RA SULAYMON HAYOTI VA IJODINI O‘RGANISH.....

III BOB. HAMKORLIK TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA T.SULAYMON ASARLARINI O‘QITISH YO‘LLARI.....

III. UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR.....

IV. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik yillarida adabiy ta'lim jarayonida shoir yoki yozuvchi hayoti va ijodini o'rgatish vositasida yoshlarga el ardog'idagi yaratuvchi, fidoyi, iste'dodli so'z san'atkorlarini tanitish va ibrat qilib ko'rsatish; ijod namunalarini tahlilu talqin qilish orqali ular shaxsiyatiga o'quvchini yaqinlashtirish, fazilatlari va o'ziga xos tafakkur tarzini, ruhiyatini anglatish; har bir ijodkorning betakror badiiy olami, etiqodi, dunyoqarashi mohiyatini, kechinma hamda tuyg'ulari zamiridagi ma'nolarni tushunishiga ko'maklashishi eng samarali yo'l ekanligi isbotlandi.

Umumta'lim maktablarida o'qitiladigan fanlar orasida adabiyot predmeti o'quvchilarda ezgu ma'naviy sifatlarni shakllantirishda yetakchi mavqeda turadi. Chunki adabiyot inson ma'naviy qiyofasini tashkil etadigan ruhiy holat, tushuncha, tasavvur, kayfiyat, orzu-umid, mayl va qiziqishlarni yuzaga keltirishning beqiyos imkoniyatlariga egadir. U o'quvchilar ma'naviy dunyosini qaror toptirishning chegarasiz maydonidir.

Adabiyot azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo'lib keladi. Shu boisdan yurtimizda ma'naviyatning g'oyat muhim va uzviy qismi adabiyotni rivojlantirish, shoir va yozuvchilarimizning ezgu mehnatini qadrlash va munosib rag'batlantirishga Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan keng e'tibor berib kelinyapdi. Shu bilan birga yoshlar o'rtasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishda bir qator muammolar mavjudligini alohida misollar bilan ta'kidlanadi¹.

Bugungi kunda fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat qudrati bilan kurashish har qachongidan ko'ra muhimroq ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlarni Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ajdodlarimiz yaratgan ulkan ma'naviy boylikka sadoqat ruhida tarbiyalash; el-yurt manfaatlari yo'lida yashab, mehnat qiladigan yurtsevar, millatparvar, fidoyi yoshlarni tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'quvchi- yoshlar qalbida yuksak insoniy tuyg'ular chuqur ildiz

¹. Mirziyoyev Sh. M. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida P/F. 2017. 12- yanvar.

otishi jamiyat ma'naviy hayotiga o'z ta'sirini ko'rsatadi, ma'naviyatning qudratli kuchga aylanishi tezlashadi.

Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga etishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir¹.

Insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan, qudratli ta'sir kuchiga ega badiiy adabiyot vositasida yoshlarda yuksak tuyg'ularni shakllantirish mumkinki, bu o'ta muhim vazifani adabiy ta'lim amalga oshiradi.

Mana shunday o'zbek badiiy tafakkurining noyob siymolaridan biri, xalq orasida keng tarqalgan sanoqsiz qo'shiqlar, o'z o'quvchilariga ega bo'lgan necha o'nlab kitoblar muallifi, jug'rofiy ma'noda Mirzacho'l kengliklari, ruhoniy ma'noda inson ko'ngli cheksizliklari kuychisi To'ra Sulaymondur.

Mazkur bitiruv malakaviy ishda shoir T.Sulaymon kabi el hurmatiga sazovor bo'lgan iste'dod egasi ijodini umumiy o'rta ta'lim bosqichlarida o'rgatish orqali o'quvchilarda yuksak tuyg'ularni tarkib toptirishning samarali vositalari, metod va usullari yoritilganligi uning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Guliston va Farg'ona davlat universitetlarida «O'zbekiston xalq shoiri To'ra Sulaymon tavalludining 85 yilligiga bag'ishlangan "To'ra Sulaymon ijodida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya masalalari"² va Gul bir yon, chaman bir yon... "Zamonaviy o'zbek adabiyoti taraqqiyotida To'ra Sulaymon ijodining o'rni va ahamiyati"³ nomli mavzularda ilmiy-ma'rifiy konferensiya o'tkazilishi, oliy va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida taniqli adib va olimlar, san'atkorlar ishtirokida uchrashuvlar, adabiy kechalar tashkil qilinganligi T.Sulaymon ijodiga e'tibor juda kattaligidan dalolat beradi.

¹ Mirziyoyev Sh..M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. 71-b.

² To'ra Sulaymon ijodida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya masalalari. O'zbekiston xalq shoiri To'ra Sulaymon tavalludining 85 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjuman materiallari. –Guliston. 2019.

³ Gul bir yon, chaman bir yon... "Zamonaviy o'zbek adabiyoti taraqqiyotida To'ra Sulaymon ijodining o'rni va ahamiyati" nomli ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Farg'ona. 2019

Shoir va yozuvchining hayoti va ijodini o'rgatish masalasi mustaqillikkacha bo'lgan davrda ham istiqloq davri adabiyot o'qitish metodikasi sohasida ham izchil tadqiq qilingan. Keyingi davrda ijodkorning iste'dod sohibi sifatidagi ijodiy qiyofasiga o'quvchi diqqatini tortish; insoniy qalbini, ruhiyatini yaratgan asarlari tahlili orqali his qildirish; yaratgan badiiy olamining betakrorlik alomatlarini anglatish, asarlarining o'ziga xos uslubda yaratilganligini tadqiq qilishga o'rgatish masalasi metodist olimlarining diqqat markazida turibdi. Q.Yo'ldoshev¹, B.To'xliyev², S.Matchonov³, M.Mirqosimova⁴, Q.Xusanboyeva⁵, R.Niyozmetova⁶, V.Qodirov⁷, M.Sariboyeva⁸ kabi olim va olimalarimizning ayrim maqola, tadqiqot ishlari, monografiya, metodik qo'llanmalarida masalaga yangicha yondashuv ko'zga tashlanadi.

Aytish kerakki, adabiyotshunoslik yo'nalishida To'ra Sulaymon asarlari atroflicha o'rganilgan. Bular orasida universitetimiz olimlaridan Q.Yo'ldoshev⁹, U.O'ljaboyev¹⁰, H.Mirhaydarov¹¹, R.Mahmudovlarning¹² alohida ilmiy risolalari, matbuotdagi maqolalarida ham T.Sulaymon ijodi xususida so'z yuritilgan.

Ammo ta'lim bosqichlarida T.Sulaymon ijodi namunalarini o'rgatishning metodik qirralari yetarlicha tadqiq etilgan deb bo'lmaydi. Bu xususda S. Olimov, Sh.Ahmedov, R.Qo'chqorov tomonidan yaratilgan 8-sinf «Adabiyot» darsligi¹³ va undan foydalanish yuzasidan yozilgan «Adabiyot - 8» metodik qo'llanmasi hamda «Til va adabiyot ta'limi» jurnalida turli yillarda chop etilgan ayrim chiqishlar,

¹ Yo'ldoshev Q. Yangicha pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. dok. ... dis. –Toshkent: O'zPFITI, 1997. - 302 b.

² To'xliyev B. O'zbek adabiyoti o'qitish metodikasi. -T.: "Yangi asr avlodi" 2006

³ Maktabda o'zbek tili va adabiyoti o'qitish masalalari. Ilmiy – metodik to'plam. Nashrga tayyorlovchi: S. Matchonov. -T.: TDPU. -1993. -80 b.

⁴ Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari. Ped. fan. dok... diss. -T.: 1995. -253 b.

⁵ Husanboyeva Q. Adabiyot-ma'naviyat mustaqil fikr shakllantirish omili. -T.: 2009.

⁶ Niyozmetova R.X. Uzlüksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rganish metodikasi. -T.: "Fan" 2007- y

⁷ Qodirov V. Mumtoz adabiyot: O'qitish muammolari va yechimlar. -T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2009. - 244 b.

⁸ Sariboyeva M. Alishe'r Navoiy epik asarlarini interfaol usullarda o'rganish. -T.: "Adib" 2014. -136 b.

⁹ Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. -T.: 2006. Ikkinchi umr manzillari. -T.: Adabiyot va san'at nashriyoti., 2016.

¹⁰ U.O'ljaboyev. Xotiraga ko'chgan umrlar. -T.:2016.

¹¹ H.Mirhaydarov. To'ra Sulaymon dostonlarida saji'. -T.: 2014

¹² R.Mahmudov. To'ra Sulaymon. –Guliston. "Ziyo" nashriyoti, 2008.

¹³ S. Olimov, Sh.Ahmedov, R.Qo'chqorov. Adabiyot. 8-sinfi uchun darslik-majmua. 2-qism. -T.: 2014.

yuqorida ko'rsatilgan kichik risolalardan boshqa e'tiborga loyiq biror bir ilmiy-metodik tadqiqot yo'q.

Ishning maqsadi. Adabiy ta'lim jarayonida xalq shoiri To'ra Sulaymon ijodini o'rganishning samarali yo'llarini ko'rsatish.

BMI oldiga qo'yilgan maqsad ushbu vazifalarni amalga oshirishni talab qiladi:

1. Shoir To'ra Sulaymon ijodi namunalarini o'quvchilar yosh, intellektual va ma'naviy-ruhiy xususiyatlariga muvofiq o'rgatish bilan bog'liq metodik muammolar tahlili.

2. Hamkorlik ta'lim texnologiyalari asosida T.Sulaymon asarlarini o'rgatish jarayoni samaradorligini ta'minlash omillari, metod va usullarini aniqlash.

3. To'ra Sulaymon ijodi namunalarini tahlil qilish vositasida o'quvchilarning tahlil malakalarini, og'zaki va yozma nutqini, kitobxonlik darajasini, mustaqil fikrlash salohiyatlarini o'stirish.

4. To'ra Sulaymon hayoti va ijodini o'rganish yuzasidan dars ishlanmalarini tayyorlash.

Ishning ob'ektini umumta'lim maktablarining 8-sinfida To'ra Sulaymon hayoti va ijodini o'rgatish jarayoni tashkil etadi.

Ishning predmeti. Maktabda shoir hayoti va ijodini o'rgatishning samarali usullari.

BMIning ilmiy yangiligi.

- Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "To'ra Sulaymon hayoti va ijodini o'rganish"ning ilmiy tamoyillari belgilandi;

- umumiy o'rta ta'limda shoir hayoti va ijodini o'rganish samaradorligini ta'minlovchi omillar aniqlandi;

- adabiyot darsligida To'ra Sulaymon hayoti va ijodini o'rganishning o'ziga xosligi tahlil qilindi.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotda To'ra Sulaymon hayoti va ijodini o'rganishning ilmiy asoslari ishlab chiqilganligi uning nazariy qimmatini belgilaydi. Bu ishda bayon qilingan ilmiy qarashlarga tayanib, adabiyotning o'zga

vakillari asarlarini o'qitish muammolarini ham tadqiq etish mumkin. T. Sulaymon ijodini o'tish yo'llari ko'rsatilgani, mavzular bo'yicha metodik ishlanmalar tayyorlangani ishning amaliy ahamiyatini ta'minlaydi. Bu hol tadqiqot natijalaridan malaka oshirish institutlarida ma'ruza matni tarzida, o'rta ta'limda metodik ishlanmalar sifatida va magistrlik dissertatsiyalarini yozishda foydalanish imkonini beradi.

BMIning tuzilishi va hajmi. Ish kirish, uch bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Umumiy hajmi-----betni tashkil etadi.

I BOB. O‘QUVCHILARNING MA’NAVIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHDA TO‘RA SULAYMON IJODINING O‘RNI

Yoshlar tarbiyasi hamma zamonlarda ham eng ustuvor vazifa hisoblanadi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, ezgu orzu-niyatlarimizni amalga oshirish ko‘p jihatdan bugun unib-o‘tib kelayotgan, bizning davomchimiz, suyanchimiz va tayanchimiz bo‘lgan yosh avlodning zimmasi va mas’uliyatiga tushadi. Shu bois barchamiz o‘zimizning muqaddas ota-onalik burchimizni jondan aziz farzandlarimizni nafaqat jismonan, ma’nan sog‘lom qilib o‘stirish, shu bilan birga ularning har tomonlama barkamol avlod bo‘lib, eng zamonaviy biz yashayotgan XXI asr talab qilayotgan intellektual bilim va boylikka ega bo‘lgan insonlar bo‘lib hayotga kirib borishni ta’minlashda ko‘rishimiz ham qarz, ham farzdir¹.

Jamiyatimiz ma’naviy hayotini yuksaltirish bevosita yoshlarni ma’naviy barkamol insonlar sifatida voyaga yetkazish masalasi bilan chambarchas bog‘lanadi. Ta’lim bosqichlarida el hurmatiga sazovor bo‘lgan, hayot yo‘li yoshlar uchun ibratga aylangan, asarlari esa ular ma’naviyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi so‘z san’atkorlari ijodini o‘rgatish adabiy ta’limning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Shoir ijodi namunalari vositasida o‘quvchilar badiiy asar bilan tanishadilar. Uning ta’sir qudrati ila go‘zallik va nafosat olamiga kirib boradilar. Badiiy asarga xos obrazlilikni, obrazli ifoda zamiridagi ma’nolarni anglashga o‘rganadilar. Badiiy so‘z ustalari tasvirlagan manzara insoniy kechinmalar mazmunini tushunishga, shoir tuyg‘ularini o‘z ko‘nglida his qilishga o‘rganadilar. Ayni damda, har bir san’atkor yaratgan asarlar orqali uni tanishga erishadilar. So‘z san’atkorlari o‘quvchi ko‘z o‘ngida betakror, o‘zigagina xos qiyofasi bilan gavdalanadi. Shoir qiyofasi, ko‘ngil olami, quvonchu iztiroblari yaratgan asarlari ruhidan his qilib anglanishi tufayli To‘ra Sulaymon kabi qator so‘z san’atkorlari hayoti bilan shaxsi o‘quvchilar uchun namuna va ibratga aylandi.

Adabiyot o‘qituvchisi o‘quvchilarni ajdodlarimizning dunyo fani va madaniyati, qolaversa, ma’naviyati rivojiga hissa qo‘shgan asarlari bilan tanishtirib

¹ Mirziyoyev Sh.M . Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. 280-b

borishi zarur. Shunda bolada milliy iftixor tuyg‘usi va o‘zligini anglash uchun ilmni egallash istagi uyg‘onadi.

O‘quvchilarning ma‘naviy kamolotini shakllantirishda shoirning «Vatanni madh etishga», «Vatanni qo‘msashga», «Vatanni himoya qilishga», «Vatanni asrashga», «Vatandan g‘ururlanishga» bag‘ishlangan sara lirik asarlarini tahlil qilish orqali amalga oshiriladi.

Lirik asarlar ustida ishlash mashg‘ulotlarining mas‘uliyatli lahzalaridan biri matni, albatta o‘qituvchi tomonidan yoddan, ifodali o‘qilishi va o‘quvchilarning uni tinglay olishlaridir. Shunda guruhdagi hamma o‘quvchilar bir necha daqiqa she‘rdan olingan estetik ta‘sir og‘ushida qoladilar. Mutolaadan keyingi bir necha soniyalik tin olish o‘quvchiga shunday imkoniyatni beradi. Shu o‘rinda prof. Q. Yo‘ldoshevning quyidagi ogohlantirishi nihoyatda o‘rinlidir: “Ko‘pchilik o‘qituvchilar ham, hatto ayrim usuliyotchi olimlar ham ifodali o‘qish deganda baland ovoz bilan tinish belgilariga rioya qilib, ko‘tarinki ruhda qiroat qilishni tushunadilar. Holbuki, asl lirik asarlarni aksariyat hollarda bor ovoz bilan o‘qib bo‘lmaydi. Hatto baland, ko‘tarinki, binobarin, nosamimiy ifoda she‘rdagi mayin lirizmni yo‘qqa chiqarishi mumkin. Xullas, ifodali o‘qish – bu ijodkorning holatini tuyib, asarga muhrlangan ruhiy manzaralar bag‘rida turib o‘qiy bilish demakdir”¹.

S. Ahmedov ham she‘riy asarlar haqida gapirib: “Lirika ijodkor qalbi oniy bir tezlikda his etgan sezgining, mavjud muhitga estetik munosabatning mevasidir. Shoir tashqi olamdan olgan taassurotlari natijasida vujudga kelgan fikrini his-tuyg‘ularga o‘rab yana yuzaga chiqaradi, kitobxonda fikr tug‘ilishiga sabab bo‘ladi”², - deydi. Adabiy mashg‘ulotlar ko‘ngil darslari sifatida shoirning asariga singdirilgan ana shu hislarini o‘qirmanga tuydirish, uni ruhan muvozanatdan chiqarish, o‘zgani tuyish va tuyganlarini so‘z bilan ifodalab bera olishga yo‘naltirishdan iboratdir. Bunday ishlar asar matni yuzasidan tuzilgan savol va topshiriqlar ko‘magida amalga oshiriladi..

She‘riy matnni ifodali o‘qish badiiy idrokning yuqori cho‘qqisiga yetganidan dalolat ekanligini B.To‘xliyev ham: “She‘riy asarni anglash, undagi muallif ko‘zda

¹ Yo‘ldoshev Q. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta‘lim maktablarida adabiyot o‘qitishning ilmiy- metodik asoslari. Ped. fan. doktori ... diss. – T.: 1997. 235 – 236-betlar.

² Ahmedov S. Adabiyot darslarida epik janrlarni o‘rganish: Adabiyot o‘qituvchilariga yordam. – T.: O‘qituvchi, 1986. – 8-bet.

tutgan niyatni, maqsad va vazifalarni tushunib yetish, she'r g'oyasining mag'zini chaqish uni uqishdan, yanada aniqrog'i, ifodali o'qishdan boshlanadi"¹, - tarzida ifodalaydi. She'riy asarga, odatda, o'quvchilar tomonidan beriladigan baho ko'proq mazmunga, uni qayta hikoyalashga tortib ketadi. Shoir voqelikni badiiy obrazlar orqali tasvirlaganda, o'z-o'zidan mazmun shakllanadi. She'riy asarlar ustida ishlanganda ham o'quvchining qalbini junbushga keltirgan mazmunga, ham she'rning yuksak san'at asari sifatida yozilganiga, ham tasvirga, ham tuyg'ular ifodasiga diqqati qaratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Xullas, maktab adabiy ta'limida har xil janrdagi badiiy asarlarni o'rganishda ularning har biriga xos bo'lgan asosiy xususiyatlarni diqqat markazida tutish, ularni o'qish va didaktik tahlilga tortishda mana shu jihatlarga ustuvor ahamiyat qaratish mazkur ta'lim samaradorligi garovidir.

Amerikalik adib Ernest Xemingueyda: "Yozuvchi bo'lish uchun jinday iste'dod bilan baxtsiz bolalik kifoya qiladi",- degan gap bor. Shu ma'noda To'ra Sulaymon yozuvchilikka har jihatdan munosib kishi edi. Go'zal Baxmal tog'lari qo'ynidagi Aldashmon qishlog'ida tug'ilgan bo'lajak shoirning armonlarga to'la bolaligi sovetlar tuzumining avji qatag'on davriga to'g'ri keldi. Otasini yot unsur sifatida qamatishib, uylaridagi ko'rpa-to'shakkacha inqilobiy hukumatga o'tkazishdi.

"Jinoyatchi"ning bolalarini esa, har yo'l bilan turtkilab, kamsitishga urinishdi. Bu mash'um voqea xayolparast va ta'sirchan shoirning siniqibroq, o'ychanroq bo'lib o'sishiga sabab bo'ldi. Xotirasida chuqur iz qoldirgan bu holat uning butun yozganlarida qandaydir siniqlik, ko'ngli yarimlik sezilib turishiga olib keldi. She'rlarining birida shoir:

Otamning alamli pok siynasida

Ushalib, ushalmay

Qolgan armonman,-

deb yozganida bolalikning ana shu achchiq iztiroblarini ko'zda tutgandi. Otasi qamoqdan chiqqach, 1939 -yilda To'ra Sulaymon oilasi Mirzacho'lning "Malik" deb

¹ To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi: (Oliy o'quv yurtlari filologiya yo'nalishi talabarlari uchun o'quv qo'llanma). – T.: Yangi asr avlodi, 2006. 80-b.

atalmish xo‘jaligiga ko‘chib kelishdi. Shu tariqa tog‘da dunyoga kelgan To‘raboy cho‘lda dunyo taniy boshladi. Bolalikda oilaning boshiga tushgan sho‘rishlar yosh To‘rani ruhan ancha erta ulg‘aytirdi¹. Unda o‘zgalarni anglash, birovning dardini his qilish sifatlari tengdoshlaridan oldinroq shakllandi va bir umrga qoldi. Tiynatidagi ayni shu sifatlari she‘riyatga oshno qildi. Chunki u olamga, odamlarga, dunyoning shevalariga shunchaki bir tomoshabin sifatida qaray olmasdi. U ko‘p o‘qirdi, butun-butun dostonlarni yod bilardi. Bolaligidanoq nimalarnidir aytgisi kelayotganini, boshqalarga ta’sir etmagan narsadan hayajonga tushib, terga botganini kuzatardi. Lekin uzoq vaqt yozganini birovga ko‘rsatmay yurdi. Birinchi she‘ri e‘lon qilinganida yigirma olti yoshda edi. O‘sha vaqtlar yozgan bir she‘rida u o‘zini she‘riyat dunyosida umid bilan yo‘lga chiqqan karvonga o‘xshatadi:

Men ham umid bilan safarga chiqib,
Uzoq manzillarga ko‘z tikkan jonman.
Birda Sirday toshib, birda tutoqib,
Katta yo‘lga chiqqan
Kichik karvonman.

Chinakam she‘r – iste’dod mahsuli, ko‘ngil mulki. Olamni shoirona idrok etolmaydigan, uning boshqalarga noma‘lum jihatlarini ko‘ra va ko‘rsata olmaydigan kishi shoir bo‘lolmaydi. O‘qib shoir bo‘lish mumkin emas. Asl shoirlik - qismat. Shoir bo‘lmaslikning uddasidan chiqa olmaydiganlar qismati. Shoir hamisha nimadandir norozi, nimadandir hayajonda. Olamni boridan go‘zalroq, odamlarni hozirgisidan komilroq ko‘rish istagi shoirni doim bezovta qiladi. Shu bois u tinimsiz to‘lg‘anadi, izlanadi:

Suvlar ham tinidi sunbula kelib,
Tinib-tinchimadi bu ko‘nglim, hayhot.
Na bahor, na yozdan, na to‘kin kuzdan
Hecham qoniqmadi, bu ko‘nglim, hayhot!

¹ Q. Yo‘ldoshev. M.Sariboyeva . To‘ra Sulaymon ijodida ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiya masalalari. O‘zbekiston xalq shoiri To‘ra Sulaymon tavalludining 85 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan ilmiy-amaliy anjuman materiallari. –Guliston. 2019. 12-b.

Shoir bir umr o'zini izlab, o'zini tekshirib, o'zini kashf qilmoqqa intilib yashaydi. T. Sulaymon - ana shunday izlanishning uzoq yo'lini malollanmay bosib o'tgan ijodkor. U qalbini to'xtovsiz taftish qilib yashadi. Negaki, har ne topsa, o'zidan topishi mumkinligini bilardi. Chunki izlagani tashqarida emas, o'zining yuragida ekanini sezardi. O'z yuragini anglamagan odam o'zgani tushunolmaydi. O'zgani tushunolmagan kimsa, Haq bilan sirlasholmaydi. Haq bilan sirlashishning eng bexato yo'li unga beg'araz muhabbatdir, uni adoqsiz sevishdir. To'ra Sulaymon she'riyati - ishq haqidagi bitiklar. U muhabbat tufayli qalam tutdi, muhabbatni kuyga soldi:

Men seni suydim, Qorako'z,
Suydim, suydirolmadim.
Ishqingda kuydim, Qorako'z,
Kuydim, kuydirolmadim.

Shunday holatga chinakamiga tushgan odam she'r yozmay, shoir bo'lmay iloji yo'q.

Shoir hamisha dard bilan yashaydi. Bir she'rida bejiz: ***“Dardsiz yashamoqlik - dardmandlik asli”***, - deb aytmagan. Olamda qanchaiki asl shoir bor hammasi dardmand. Ular go'zallikning, ezgulikning dardi bilan og'rikan bemorlardir. Barcha chinakam asarlar g'amning mevalari o'laroq dunyoga kelgan. Asrimizning buyuk ijodkorlaridan biri: ***“Shoir diliga qilma havas but esa bag'ring, Shoir yuragin doimo vayron yozajakman”*** deya nola qilganida, ikkinchi bir ulkan shoir: ***“Dilu jon o'rtanar, dil orom istar, Ilhomning pichog'i sanchilar butkul”*** deb ozorlanganida haq edilar. Bilasizki, Odamning loyini qorishga suv bo'lsin deb yog'dirilgan qirq yillik yomg'irning o'ttiz to'qqiz yili qayg'u, bir kuni shodlik yomg'iri edi. Navoiy hazratlari: ***“Ko'ngilda g'am yo'qligi o'zi g'amdur, Alam yo'qlig'i asru alamdur”***, - deganlarida barcha ijodkorlarning ko'ngillaridagini bildirgandilar. Shundan bo'lsa kerak, To'ra Sulaymon ijodida alamangiz she'rlar ko'pchilikni tashkil etadi. Shunday she'rlari o'quvchilar qalbini to'liqroq egallaydi, xotiralarida hamishalikka qoladi:

Izlay-izlay horib bo'ldim, sensiz yolg'iz g'arib bo'ldim,
Endi bosgan izlaringni to'rt tomondan topolmasman.

Yo‘qotganlarining topilmasligini, ketganlarining qaytmasligini bilgan kishining adoqsiz armonlari ifodasiga qarang:

Giyoh bilan qoplanmish ko‘hna qabr boshlari,
Maysadagi shudringlar - kimlarning ko‘z yoshlari?
Bu yerda yotar otam ham uzangidoshlari,
Bahor, ketma, mening bog‘imdan.

Adolatning toptalganini ko‘rgandagi ko‘ngil rozlari ham g‘amli ohang bo‘lib misralarga quyiladi:

Bemavrid xeshlarimning ko‘zlarida yosh ko‘rsam,
Bir mard bilan nopokning yo‘lini tutash ko‘rsam,
Qaysi bir begunohni keng yo‘lda adash ko‘rsam,
Bir betayin kimsaning oyog‘ida bosh ko‘rsam...
Ko‘nglimda armon yotar terskaydagi qor misol.

Insonning so‘nggi makoni haqida o‘yga tolgan shoir qismat oldidagi o‘z ojizligidan iztirob chekmoqda bo‘lgan kishi ruhiyati tovlanishlarini anduh bilan o‘ziga xos yo‘sinda tasvirlaydi:

Bu maskan qopqasizdir, bu qo‘rg‘on hoqonsizdir,
Borish boru kelish yo‘q, bu go‘sha omonsizdir,

T. Sulaymon o‘z she‘rlarida ruhiyatning ta‘sirchan manzarasigina emas, ijtimoiy yuk, salmoqli insonparvarlik missiyasi bo‘lishini istaydi. Shu bois uning nazarida she‘r bir ko‘ngilning rozigina emas, balki har qanday odamning kimligini aniqlaydigan mezon, ma‘naviyatini tayin etadigan o‘lchovdir:

O‘lan bilmas er asta ayniy boshlar,
Qaydan bilsin o‘lanni bag‘ri toshlar.

To‘ra Sulaymon she‘riyati ta‘sirli hissiy timsollar vositasida ifodalangan yombi va zalvorli fikrlar she‘riyatidir. Payg‘ambarimizning: “So‘zda sehr bor, she‘rda hikmat”,- degan hadislaridagi ikki jihatni ham shoir o‘z ijodida namoyon qilishga tirishadi. Ruhiyatning tushuntirish mushkul bo‘lgan qatlamlarini tadqiq etish, hissiyotdagi eng murakkab jarayonlarni bor chigalliklari bilan tasvirlashga e‘tibor o‘ta kuchaygan bir sharoitda T. Sulaymon g‘oyat miqyosli, qamrovli fikrlarni, go‘zal

badiiy topildiqlarni sodda yo‘sinda, ornamentalizmga berilib chigallashtirmay, murakkablashtirmay tasvirlash yo‘lini tanladi¹. Ko‘pincha, she‘riyatdagi soddalik jo‘nlikka olib boradi. T. Sulaymon ijodida esa, soddalik teranlikka xizmat qilgan. Shoirning elaro mashhur bo‘lib ketgan she‘ri - “Tebratar”ning ohang va mazmuniga e‘tibor qiling:

Shamol shamolni tebratar.

Shamol bulutni tebratar.

Bulut yomg‘irni tebratar.

Yomg‘ir maysani tebratar.

Maysa biyani tebratar.

Biya qimizni tebratar.

Qimiz yigitni tebratar.

Yigit suluvni tebratar.

Suluv beshikni tebratar.

Beshik bolani tebratar.

Bola dunyoni tebratar.

Shoir chigal tashbihlar, boloxonador o‘xshatishlar, zamzamali obrazlar yaratishga atay urinmaydi. Qadimiy dunyo tartibotidagi eng muhim bo‘g‘inlarning bo‘rtiq she‘riy manzarasini soddagina misralar bag‘riga joylay oladi. Chinakam shoirlik tomchida ummonni, qatim nurda quyoshni, ata-chechak bir niholda og‘ochnigina emas, butun boshli o‘rmonni ko‘ra olish demakdir. Yo‘q! Ko‘ra olish kifoya emas, balki she‘rxonga ham ko‘rsata bilishdir. Shunchaki ko‘rsatib qolmay, o‘quvchining hissiyotini qo‘zg‘aydigan, tuyg‘ularini bezovta qiladigan, shuuriga mixlanib qoladigan tarzda moddiylashtiradi:

Taqa tuyoqni asragay,

Tuyoq tulporni asragay,

Tulpor Temurni asragay,

Temur Turonni asragay,

¹ Q. Yo‘ldoshev. M.Sariboyeva. To‘ra Sulaymon ijodida ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiya masalalari. O‘zbekiston xalq shoiri To‘ra Sulaymon tavalludining 85 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan ilmiy-amaliy anjuman materiallari. –Guliston. 2019. 16-b

Turon Qur'onni asragay,
Qur'on imonni asragay,
Imon insonni asragay,
Inson olamni asragay,
Olamni O'zi asragay.

She'rdagi shunchaki bir taqadan boshlangan gap olamni asrash bilan tugaydi. Narsa-hodisalar o'rtasidagi sababiy bog'lanishlarni, umumdunyo aloqadorligini bu qadar go'zal va o'zbekona idrok eta bilmoq hamda sodda yo'sinda ta'sirchan ifoda qilmoq uchun To'ra Sulaymon singari noyob iste'dod egasi bo'lish kerak.

Asl ijod buzilgan muvozanatdir. Dunyodagi birorta shoir ruhiy muvozanatdan chiqmay turib, birorta tuzukroq she'r yozolgan emas. Muvozanatdan, ya'ni risoladagi odamlarda bo'ladigan ruhiy holatdan chiqish har bir ijodkorda o'zgacha kechadi. Lekin deyarli barcha asl ijodkorlarning ham qalbi yalong'och, himoyasiz, ro'y bergan hodisaki bor unga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Yana bir haqiqat ayonki, ijodkor bir umr o'z bolaligini tasvirlash bilan band bo'ladi. Qishloqda nari borsa, o'n yetti yoshigacha yashagan adiblar bir umr shu haqda yozishadi. Negaki, ijodiy holat qay bir darajada bolalik yoki u davrdagi to'zilikni qo'msashdir. Adiblar har doim ham shoir yoki yozuvchi emaslar. Ular faqat ijod qilayotganlarida, ilhomning yulduzli onlaridagina ijodkorlardir. O'shanday vaqtda ularning oyog'i yerdan uziladi, g'ayb bilan sirlashadi. Shuning uchun ham To'ra Sulaymon bitgan: ***“Telbanamo edim yoshlikda Telbalikning xali aksi bor”*** misralarni ilhomiy holatning suvrati deyish mumkin. O'ziga shaxsan daxldor bo'lmagan narsadan ham kuchli ta'sirlanish, qattiq quvonish yoki qayg'urish, shu holatini qog'ozga ko'chirmaslikning ilojini topolmaslik ro'zg'oriy mezonlar bilan o'lchanganda telbalikning o'zginasi. Lekin shoir maishiy o'lchovlar bilan emas, ruhoni miqyoslar bilan ish ko'radi, ma'naviy tarozilar bilan tortadi. Shuning uchun ham: ***“Odamlilik tugagan joydan shoirlik boshlanadi”***, - deyishadi.

Aksar shoirlar devonafe'l bo'lganligi, darveshvashtash yashaganligi uchun, axloqiy va huquqiy qoliplarga ko'pda rioya qilavermagani bois, ko'pchilikning nazarida, ancha erkin hayot kechiradiganga o'xshab ko'rinadi. Chuqurroq o'ylab qaralsa,

ularning erki qulning erkidan cheklanganroq bo'lsa borki, ortiq emas. Nega? Chunki shoir ijodidan erkin bo'lolmaydi. Aslan ijod erkinligi tushunchasi ijodkorning erkinligini emas, aynan ijodning erkinligini anglatadi. Shoir o'z tuyg'ulariga, hissiyotiga xo'jayin bo'lolmaydi. Hissiyotini boshqara olgan odam ijodkor emas. Tuyg'ular boshqarilmayotgan holatidagina ijodiy meva beradi. Ijodkor ilhomiga biylik qilolmaydi. Bil'aks, shoir o'z ilhomining qulidir. Unda faqat junbushga bo'lgan tuyg'uni, quyilib kelayotgan fikrni go'zal shaklda ifodalay olish erki bor xolos. Ilhomni zo'rlab bo'lmaydi. Shuningdek, uning yo'lini to'sish ham oson emas. Talantli shoirlar istalgan vaqtda emas, ko'ngillari tusagandagina she'r o'qiy oladilar. Bundayroq shoirlarga iltimos qilindi, bas o'qiyverishadi. Negaki, birinchi toifadagilar chinakam iste'dod sohiblari va ular ilhom bilan ish ko'radilar. Keyingilar esa ijrochilar ularga tomoshabin bo'lsa bas. Asl ilhomni zo'rlab bo'lmaydi. Zo'rlangan ilhom chala nasl beradi¹. Shu sabab To'ra Sulaymon butun tuyg'uga, butun yurakka egaligi haqida faxr bilan yozadi:

Menga butun ko'ngil kerak, kun kerak,
Menga tutash yulduz to'la tun kerak.
Men yortilab muhabbatni olmayman,
Men yorti do'st xonasida qolmayman

Shoir chala suymaydi, chala yashamaydi, chala dovlashmaydi, chala yovlashmaydi, chala do'stlashmaydi. O'z so'ziga, o'z tuyg'usiga ega bo'lganligidan g'ururlanadi. Tuyg'ular o'ziniki bo'lgani bois "yuqumli". Birovdan tuyg'u olib, birovning ovozi bilan kuylab, birovning so'zi-la tasvirlab, e'tirof qozonish mumkin emas. Shoir shuning uchun: "O'zga sozni chalgulik qilma" deya iltijo etadi.

T. Sulaymon butun ijodiy umri mobaynida faqat o'z sozini chalib keldi. Quyidagi misralarga e'tibor bering. Har uch kishidan biri shoir bo'lgan biznikiday yurtda ham boshqa birovnikiga o'xshatib bo'ladimi ularni?

Bu olamda Oy tanho, muborak Quyosh tanho,
Bo'y qizlarning ichida bir shu egma qosh tanho,

¹ Q. Yo'ldoshev. M.Sariboyeva. To'ra Sulaymon ijodida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya masalalari. O'zbekiston xalq shoiri To'ra Sulaymon tavalludining 85 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjuman materiallari. –Guliston. 2019. 19-b

Uningdek hech kim menga bo‘lmasa sirdosh tanho,

Go‘ro‘g‘li sulton bir yon, To‘ra Sulaymon bir yon.

Yoki mana bu tashbih boshqa biror shoirni esga soladimi:

Osmon o‘rtasinda nozlanadir oy.

Bu misralar kishini beixtiyor shoir tasavvuriga mos ruhiy holatga tushiradi. So‘zning qudrati shuda! To‘ra Sulaymon so‘zning jilosini teran his etadi. So‘zning ko‘pchilik xotirasidan ko‘tarilgan xalqona ohangdor shakllarini, unut bo‘layozgan qadimiy ma‘nolarini topadi. Shoir so‘z izlamaydi, balki ruhiy holatga ifoda qidiradi. Uning tuyg‘ulari – xalqona. Binobarin, ifoda ham shunga mos. Holatga yarashliqli so‘z topa bilish shoir uchun saodat. “To‘lg‘anoy” dostonida: “*Uni chechan demakim ta‘biri yarashmasa...*”,- degan shoir va o‘zi imkon boricha yarashliqli ta‘bir topishga, ta‘sirli tasvir qilishga urinadi.

Har qanday ijodkorning asl qiyofasini uning tili belgilaydi. Shu ma‘noda To‘ra Sulaymon tamomila o‘ziga xos shoir edi. To‘g‘ri, u ham boshqalar foydalanib yurgan so‘zlarni ishlatardi. Lekin u bu so‘zlarni kitobdan olmaydi. Kitobdan olingan so‘z obrazga yopishmay, matnga begonaligini bildirib turadi. T. Sulaymon so‘zga ayricha bir erkinlik bilan yondashadi. U har qanday asov so‘zni ham yuvvosh torttiradi. So‘zni ruhga bo‘ysundira biladi. O‘zi so‘zning emas, ruhning stixiyasi yetovida yuradi. Oddiygina so‘zdan faqat To‘ra Sulaymonga xos tasvir uslubini vujudga keltira oladi. Quyidagi tasvirlarga e‘tibor qiling:

Ko‘kda suzgan bulut momiqdan ham oq,

Koshkiydi boshlansa yomg‘ir yog‘aloq.

Bulutni paxtaga o‘xshatish kimlardan qolmagan, lekin momiqqa o‘xshatilishi uslubni o‘zgartirgan. She‘rining ohangi mirtemirona edi. Ammo ustoz bulutni “pag‘a”, “oq” deya sifatlardi. Cho‘lda, paxta orasida, paxta chigitlab ulg‘aygan T. Sulaymon uning momiqqa o‘xshashligini ko‘ra biladi. “Sog‘inish” she‘rida: “*Yaylovlarda maysa qimtir qo‘y-qo‘zi*” tarzidagi tasvirda “qimtir” bag‘oyat o‘rnida ishlatilgan, bu so‘zdagi ma‘no nozikligini hammayam ilg‘ayvermaydi. Hodisalarni “to‘rachasi”ga ko‘rish namunasi: “*Tog‘lar to‘shi yorishdi, demak tong otayotir*”. Bu misrada quyosh haqida bir so‘z demay, uni ko‘rsatish mumkin ekani namoyon bo‘lgan.

Shoir she'rlarida hissiyotini izohlamaydi. Uni shunday bir yo'sinda ifoda qiladiki, shu ifoda zamirida ruhiy holatni tug'dirgan sababga munosabat ham yashiringan bo'ladi: *“Ko'nglimda armon yotar terskaydagi qor misol”*, - deydi bir she'rida. Quyoshga ters tarafdagi qor uzoq vaqt erimay, kirlanib yotganiday, lirik qahramon ko'nglidagi armon erib ketadigan emas, o'shandoq bo'lsa, unga shoirning munosabati tayin, albatta, va u o'z-o'zidan she'rxonga ham yuqadi.

To'ra Sulaymon badiiy tajribalar o'tkazishga o'ch emasdi. U juda qadimda paydo bo'lgan tajribalardan ustalik bilan foydalana oladigan ijodkor edi. U eski shaklning yangicha talqinlarini topa biladi. Shoir so'zning qadimiy birlamchi ma'nolariga murojaat etishni xush ko'radi: “bo'y qiz” deydi bo'yga yetgan qiz haqida, “bo'zalam” deydi tilga doir kitoblarda chimzor deb yuritiladigan tushunchani, “uzangidosh” deb ataydi xo'p o'zbeki qilib, xo'p ta'sirchan qilib, do'st, tengdosh, jo'ra, safdosh singari bir qancha so'zlarni isrof qilib ham to'liq ifodalab bo'lmaydigan yana bir tushunchani. Tilimizda hamisha bo'lgan, endilikda ayrim keksalargina qo'llayotgan xushyor ma'nosidagi “soq” so'zi joyida ishlatilgani bois ifodaviylikni necha barobar oshirib yuboradi.

To'ra Sulaymon so'zga avaylab, qizg'anib yondashadi. Ularning bemavrid yo'qolishiga yo'l qo'ymaslikka urinadi. “To'lg'anoy” dostonida *“to'rlab sadrga tushganda”* degan jumla bor. Eliboy o'zbeklarda hayotdan yosh ketgan yigitning kiyimlarini ot ustiga tashlab, ot bilan sadr tushish odati bo'lgan. Yuqoridagi jumlada ana shu holat ifodasini topgan. Besh yashar otning yilqichilar tilida “to'lan” ekanini hamma ham bilvaermaydi. Diqqatga sazovor jihati shundaki, u bu xildagi so'zlarni, ma'lumotlarni shunchaki ekzotika uchun, etnografik dalil sifatida emas, juda o'rinli va tabiiy tasvir vositasi tarzida ishlatardi.

T. Sulaymonning so'zga alohida bir ehtiyotkorlik bilan yondashuvi, ehtiromi, fikrlarini hikmat yo'sinida ifodalaganida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shoir asarlariga sinchiklab qaralsa, u: *“Sutsiz sigir suzog'on kelar”*, *“Toqatliga tog'lar egar boshini”*, *“Quvib o'lgan - mangulik, Qochib o'lgan - ko'mgulik”* singari bir qator maqolu hikmatlar yaratgan.

To‘ra Sulaymon asarlarini o‘qigan o‘quvchi qalbida beixtiyor o‘z Vataniga, uning har bir giyohiga hurmat uyg‘onishi shubhasizdir. Quyi sinflarda bu asarlar chuqur his qilinmasdan, shunchaki o‘qilishi mumkin, ammo yuqori sinf o‘quvchilari chuqur mazmun kasb etgan shoir asarlarini yurakdan his qilib o‘qiydilar.

Bukun qay bir yerda qish, qayda xazonrezgilik,

Qaylarda yoz, qayda kuz, qayda jondan bezgilik,

Ko‘klamning har nafasi umrga arzigulik,

Bog‘siz, bog‘bonsiz yerda ne ham qilsin ezgulik...

Ketma, bahor, mening bog‘imdan.

Universitetimizda «O‘zbekiston xalq shoiri To‘ra Sulaymon nomidagi o‘quv xonasi»ning tashkil etilishi bejiz emas, albatta. Chunki bu zot Guliston davlat universiteti deb atalmish bilim maskanining o‘z odami, diltortar kishisi, ishonchli hamkori, yaqin maslahatgo‘yi edi. Filologiya fanlari nomzodi, dotsent U.O‘ljaboyev ustozimiz bizga ma‘ruza darsiga kirganlarida shoir haqida shunday fikrlarni aytdilar. “Garchi u kishi bu yerda bevosita biror fandan ma‘ruza o‘qimagan bo‘lsa-da, turli uchrashuv va katta –kichik yig‘inlarda faol ishtirok etar, yangi yozgan va hali siyohi qurimagan she‘rlaridan namunalarni bizga ilinib, vaqti-vaqti bilan kafedramiz a‘zolariga o‘qib berar edi. O‘qituvchilarimiz tomonidan o‘qilgan she‘rlari haqida iliq gaplarni eshitgach, shunday asarlarni yozgani uchun bir quvonsa, ular haqida yaxshi ta‘riflarni eshitgani uchun ikki bor quvonib, ko‘tarinki kayfiyatda kafedrani tark etardi”. Shuning uchun ham u kishining xotirasiga bag‘ishlangan o‘quv xonasining ochilishi ko‘p xursandchiligu hayajonlarga sabab bo‘lgan.

Universitet rahbariyati vakillari ham, o‘qituvchilaru o‘quvchi yoshlar ham bu ulug‘ va ayni vaqtda o‘ta hokisor insonning xotirasini, hamkorlikda qilingan ishlarni yodga olib, ehtirosli dil so‘zlarini aytadilar, she‘rlarini yoddan o‘qiydilar. To‘ra Sulaymon baxmal lahjasidan uzoqlashmagan, juda adabiylashib ham ketmagan shoir ekanligini, hayotdagi oddiy narsalar haqida gaplashayotganda ham uning so‘zlari, har bir holatga nisbatan nigohi, fikrlash tarzi boshqalarnikidan ajralib turganini olimlarimiz bot-bot eslashadi.

To‘ra Sulaymon butun vujudi, har bir xatti-harakati, gap-so‘zi bilan shoir edi. Shoir bo‘lganda ham haqiqiy tug‘ma, quyma shoir edi.

Shoir katta adabiyotimizda – hozirgi o‘zbek adabiyoti deb ataladigan ulkan ijodiy saltanatda o‘z o‘rniga, o‘z salmog‘iga ega bo‘lgan ijodkor edi. Agar she‘rni gulga qiyos qiladigan bo‘lsak, adabiyotimizning bu salobatli bo‘stonida To‘ra Sulaymon ekkan gullarning rangi, hidi va tarovati alohida ajralib, «mana men» deb ayri-ayri ko‘zga tashlanib turadi. She‘riyat maydoniga xalq og‘zaki ijodi namunalarini yozib olish, ularni matbuot sahifalarida e‘lon qilib, targ‘ib etish orqali kirib kelgan shoir umrining oxiriga qadar ham ijodida shu yo‘nalishga, sodda va xalqona ifoda usuli va vositalariga sodiq qoldi. Ana shu oddiy, bizga tanish bo‘lgan insoniy holatlar va kechinmalar tasvirida bizga zamondosh bo‘lgan lirik qahramon qiyofasini yorqin bir tarzda ifodalab berishga muvaffaq bo‘ldi. To‘ra Sulaymonning ko‘p she‘rlari so‘z qurilishi jihatidan juda oddiy, hatto anchagina jo‘n ko‘rinishga egadek tuyuladi. Lekin ana shu oddiylik va jo‘nlikning zamirida o‘tkir mantiq va kuchli falsafa mujassam bo‘lganligi shundaygina ko‘rinib turadi.

To‘ra Sulaymonning she‘rlari mavzu jihatdan ham g‘oyat rang-barangdir. Ularning orasida tabiat fasllari haqida yozilganlari ham, onalarimizning nurli qiyofalari chizilganlari ham, sevgi-muhabbat tuyg‘ulari ifodasiga bag‘ishlanganlari ham, insondagi armonu iztiroblarni o‘zida jamlaganlari ham, kindik qoni tomgan zaminni sharaflovchilari ham, yomonlarga g‘azab o‘qini otuvchilari ham bor. Muhimi, qaysi mavzuda yozmasin bizning dilimizdagi, kezi va vaqti-soati kelishi bilan tilimizda aytilishga shay turgan gaplarni aytishga, ularning chiroyli ifoda shakllarini topishga erishgan. Masalan, quyidagi she‘riy parchalarga diqqat qilib ko‘ring:

Yeru samovatda Navro‘z nafasi,
Bog‘u bo‘stonlarda andalib sasi.
Bu nafas, bu sasning yo‘q muqoyasi,
Qayta ketmas bo‘lib keldingmi, bahor?

(«Qayta ketmas bo‘lib keldingmi, bahor?»she‘ridan)

Yoki:

Nelardandir ko‘ngil bo‘lib g‘ash,
Ham egilib bu egilmas bosh.
Ko‘zlarimda qalqib tursa yosh,
Bu holimga berolmay bardosh
Mushtipar bir onam yig‘laydir,
Qolganlari yolg‘on yig‘laydir.

(«Tavallo»she’ridan)

Chuqur mazmunga, dilni qitiqlovchi ohanga, o‘tkir falsafiy ma’noga va go‘zal poetik shaklga ega bo‘lgan bunday misralarni shoirimiz ijodidan ko‘plab keltirish mumkin.

To‘ra Sulaymon hazil – huzulni, yumorni yaxshi ko‘radigan inson edi. Tabiatidagi bu xususiyat shoirning ijodida ham ba’zi misralarda ko‘zga tashlanib turadi. To‘ra Sulaymonning ustozlari Mirtemir va Zulfiya Isroilovalardir. Viloyatda istiqomat qiladigan ijodga aloqador kishilarga nisbatan ularning hammasining ham, katta-kichikligiga qaramay, hurmatini joyiga qo‘yishga, agar zarurat bo‘lsa, yordamini ham ayamaslikka harakat qiladigan shoirimiz. yoshlarga qanchalik ustozlik qilganini, ijod maydonida oyoqqa turishga ko‘mak berganini ko‘pchilik qalam egalari minnatdorchilik bilan eslab yurishadi. Bular sirasiga viloyat shoirlari T.Sulaymonning shoridlari Hayot Shodmon, Hasan Abduvohidov, Shuhrat Hakimov kabi iste’dod egalarning nomlarini keltirish mumkin.

T.Sulaymonga bag‘ishlangan konferentsiyalardan birida shoirni eslab uning shogirdlari, olimlar uning fazilatlarini haqida fikr bildirib, “U kishi doim viloyatimizda yashab ijod qiluvchi qalam sohiblarining boshini bir joyga yig‘ishga harakat qilib yurardi. Shu sohaga o‘zini bag‘ishlagan kishilarning o‘zaro yaqinlashishiga, bir-biri bilan hamkorlik qilishiga yaxshi imkoniyatlar yaratgani sir emas. Lekin shunday bo‘lsa ham, bir narsa haqida doim bezovta ohangda tez-tez gapirib turardi. «Nega biz boshqa viloyatlardagi ijodkorlar kabi ahil emasmiz? Nega biz vaqti-vaqti bilan yig‘ilishib turmaymiz? Nega biz yangi kitoblarimizni muhokama qilib, ijodiy ishlarimizdan o‘zaro xabardor bo‘lib turmaymiz?», degan gaplarni keyingi vaqtlarda To‘ra aka ko‘p aytadigan bo‘lib qolgandi. Yosh iste’dodlarning asarlarini nashr

qildirishda qiynalayotganlarini ko‘rib, ularga yordam qo‘lini cho‘zadiganlar, ijod namunalari qo‘llab yuboradiganlar kamligini kuzatib ancha xafa bo‘lardi”, deb shoirning insoniy fazilatlarini haqida so‘zlab berishdi.

Shu jihatdan olib qaralganda, milliy adabiyotimiz an‘analarida shakllangan To‘ra Sulaymonning baxshiyona ijodi bebaho durdona asarlar deyish mumkin.

Istiqlol mafkurasi milliy-ma‘naviy g‘oyalar asosida shakllanadi va ma‘rifiy omillar vositasida targ‘ib qilinadi. Ayniqsa, adabiyot darslari orqali ma‘naviy merosimizni o‘rganish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar orqali vatanparvarlikni tashviqot qilish juda samarali hisoblanishi ko‘p bor ta‘kidlanadi.

Shoir qalamiga olgan har bir voqea, obraz zamirida millat taqdiri, o‘zlikni anlash tuyg‘usi jonlanadi.

Xulosa sifatida shuni ta‘kidlash joizki, To‘ra Sulaymon asarlarida milliy ruh, qadimiy an‘ana va marosimlar, unutilish arafasida turgan qadriyatlarni yoritish alohida o‘rin tutadi. Milliy qadriyatlarimiz kitobxon qalbiga birinchi navbatda tilimiz orqali jo bo‘ladi. Shoir asarlarida o‘zbekona milliy tuyg‘u bor. Shuning uchun zamondosh shoirimizni qanchalik qadrlasak, e‘zozlasak arziydi.

Birinchi bobda bildirilgan nazariy fikrlar natijalariga tayanib, quyidagicha ilmiy xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Jamiyatimiz ma‘naviy hayotini yuksaltirish bevosita yoshlarni ma‘naviy barkamol insonlar sifatida voyaga yetkazish masalasi bilan chambarchas bog‘lanadi. Ta‘lim bosqichlarida el hurmatiga sazovor bo‘lgan, hayot yo‘li yoshlar uchun ibratga aylangan, asarlari esa ular ma‘naviyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi so‘z san‘atkorlari ijodini o‘rgatish adabiy ta‘limning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

2. She‘riy asarlar ustida ishlanganda ham o‘quvchining qalbini junbushga keltirgan mazmunga, ham she‘rning yuksak san‘at asari sifatida yozilganiga, ham tasvirga, ham tuyg‘ular ifodasiga diqqati qaratilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

3. Shoir ijodi namunalari vositasida o‘quvchilar badiiy asar bilan tanishadilar. Uning ta‘sir qudrati ila go‘zallik va nafosat olamiga kirib boradilar. Badiiy asarga xos obrazlilikni, obrazli ifoda zamiridagi ma‘nolarni anglashga o‘rganadilar.

II BOB. UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA XALQ SHOIRI TO‘RA SULAYMON IJODINI O‘RGANISH

Adabiy ta‘limni to‘g‘ri tashkil etish bu jarayonning o‘quvchilar ishtirokida o‘qituvchi tomonidan emas, balki o‘quvchilarning o‘zlari tomonidan o‘qituvchi ishtirokida amalga oshirilishini nazarda tutadi. Shu asosga qurilgan zamonaviy suhbat metodi o‘quvchi ma‘naviyatini sog‘lomlashtirish, dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni o‘zlashtirish, mantiqiy va mustaqil tafakkurini ta‘minlashda qo‘l keladigan metodlardan biridir. A. Tojiyevning “Adabiyot darslarida suhbat” kitobida bu metodning o‘ziga xos xususiyatlari haqida batafsil so‘z yuritilgan¹.

Adabiyot darslaridagi suhbatlarda ishtirok etgan o‘quvchi o‘z fikrlarini muhokama qiladi, qarashlarini so‘z bilan ifodalashga tayyorlanadi. U fikrning aniq va muayyan maqsadga yo‘naltirilishini ta‘minlaydi. Suhbat jarayonida o‘quvchida o‘z fikrini aytish, uning to‘g‘riligiga hamsuhbatlarini ishontirish ehtiyoji tug‘iladi. o‘quvchini o‘z fikrini isbotlash uchun asar matnidan dalillar topa bilish, misollar keltirish ko‘nikmasini egallashga yo‘naltirish, uni e‘tiroz bildirishga, qarshi fikrlar ayta olishga odatlantira borish suhbat metodining talablaridan biridir. Bu metod o‘quvchilarni hamsuhbatni eshitish, munozarada ishtirok etishga o‘rgatadi, o‘z bilimini chuqurlashtirishga ehtiyoj paydo qiladi, qiziqishlari doirasini kengaytiradi.

O‘rta maktabning 8-sinfida taniqli shoir T. Sulaymonning “Iltijo”, “Armon”, “Tavallo” va “Gul bir yon, chaman bir yon” singari to‘rtta she‘rini ikki soat davomida o‘rgatish ko‘zda tutilgan. O‘qituvchi bu she‘rlarning har birini ham, imkon qadar, yoddan ta‘sirli va ifodali o‘qishga harakat qilishi kerak.

O‘quvchilarga o‘rgatiladigan birinchi she‘r **“Iltijo”** deb nomlanadi. Ma‘lumki, har qanday asarning emotsional ta‘sir qudrati badiiy tahlil amalga oshirilganda yuzaga chiqadi. She‘r o‘qib berilganidan so‘ng asar sarlavhasiga diqqat qaratilishi lozim. So‘ng savol-topshiriqlar ko‘magida uning bandma-band tahliliga o‘tiladi. She‘rning birinchi bandi yuzasidan **“She‘rdagi “Qirlarda lola sayli, qishlovlarda yilboshi” satrining mazmunini izohlang. Yilboshi nima?”** tarzida savol qo‘yilsa,

¹ Tojiyev A. Adabiyot darslarida suhbat. –T.: «O‘qituvchi», 1997.

qishloq maktablarining o'quvchilari qiynalmay javob bera olishlari, bunga hayotiy misollar ham keltirishlari mumkin. Shaharlik bolalar bir muncha qiynalishlari tabiiy. Agar o'quvchilarga bu savol ustida o'ylab ko'rish, lozim bo'lsa kattalar bilan maslahatlashish imkoni berilsa, ular izlanishga majbur bo'ladilar va "Yilboshi" - "Navro'z" bayramining turkiy atamasi ekanini aniqlaydilar.

So'ng, o'qituvchi bahor kelganda tabiatda sodir bo'ladigan o'zgarishlarning shoir tomonidan ifodalanishiga o'quvchilar diqqatini tortadi. Ko'klam haqida kuylagan har bir shoirning o'zi ifoda uslubi bor. ***"T. Sulaymonning uslubidagi ta'sirchanlik sababi nimada? She'r birinchi bandning o'ziyoq odam ruhiyatida qandaydir qo'zg'olish, tebranish paydo qiladi. Bu nimadan? Nega shunday bo'lyapti?"*** yo'sinida qo'yilgan savollarga javob berish uchun o'quvchilar she'rning o'sha bandini qayta o'qishlari va so'ng u yuzasidan fikrlashlari lozim. Bular insonning tuyg'ulari ifodasi bilan bog'liq bo'lgan o'ta nozik tasvirlardir. Ayrim o'quvchilar bandni qayta o'qish paytida shuni tuygan bo'lishlari, lekin o'z tuyg'ularini so'z bilan ifodalashga qiynalishlari mumkin. Ularga ko'mak berish, tuyganlarini ifodalagan o'quvchilar esa rag'batlantirilishlari kerak. O'quvchilar bu savollarga to'la javob berisholmasa ham ularni bezovta qilib qo'yish, hissiyotini taftish etishga undashning o'zi adabiy ta'limdagi katta yutuq hisoblanadi.

Savollar tuzish, savol bilan o'quvchilarga murojaat qilish usullari, u ritorik bo'ladimi yoki o'quvchilardan bevosita javob talab qiladimi yoxud biror muammoning yechimiga yo'naltiriladimi, tarbiyalanuvchining aqliy faolligini oshirishga xizmat qilishi lozim. Savollar ritorik tarzda qo'llanilganda ular ko'magida o'rganilayotgan ob'ektning muhim jihatlariga urg'u berish, bolalarning diqqatini shunga qaratish nazarda tutiladi. Ritorik savollar bolalarni mana shu muhimni yaxshiroq ko'rishga va xayolan avval o'rganilganlari bilan yangi o'zlashtirilayotgan bilimlar orasidagi aloqani tiklashga yo'naltiradi va shu tarzda keyingi ma'lumotlarni diqqat bilan chuqurroq egallashga e'tibor qaratiladi.

O'quvchilar oldiga qo'yilgan: ***"O'lmaslikka ishora - o'langa oshiqligim" tarzidagi xulosani tushuntirib bering. "O'langa oshiqlik" bilan o'lmaslik o'rtasida qandaydir bog'liqlik bor deb o'ylaysizmi?"*** savol-topshirig'iga javob berish asnosida

ular o‘lan ezgulikka xizmat qilgani uchun ham unga oshiq bo‘lish o‘lmaslikka ishora ekani haqida mulohaza yuritishlari lozim. O‘quvchilar o‘z qarashlarini asoslashda, albatta, she‘rning misralaridan keltirishgani ma‘qul. **“Bukun qay bir yerda qish, qayda xazonrezgilik, Qaylarda yoz, qayda kuz, qayda jondan bezgilik” misralari faqat tabiat holatlarigagina daxldormi?”** shaklidagi savol o‘quvchilarni hayot, uning shodligu tashvishlarini bir lahza xayoldan o‘tkazishga undaydi. Bu misralarda ham tabiat holati, ham ko‘ngil manzaralari tasvirlangani o‘quvchilar tomonidan anglab yetiladi. Bolalar quvonch, g‘am, baxt, baxtsizlik yonma-yon ekanini shu yo‘sin tasvirlanayotganini ilg‘ab olishsagina tahlil samara bergan bo‘ladi. Bolalarda dunyoning “jondan bezgilik” jihatlari borligi borasida muayyan fikr shakllanadi. Shu bandning ikkinchi qismi bilan bog‘liq **“Ko‘klamning har nafasi umrga arzigulik” ifodasini tushuntirishga urinib ko‘ring**” topshirig‘i bolalarni jiddiygina o‘ylantiradi. Javoblarda o‘quvchilarning qanchalik mantiqli mulohaza yurita bilishlari namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, o‘z xatti-harakatlarini kuzatib yuradigan bolalar, ko‘klam kezlarida tabiat go‘zalligi tufayli inson ruhiyatida yuksak tuyg‘ular kechishini ilg‘ab olishadi. Tabiiy go‘zallikdan olingan bahra, tuyilgan lazzat inson umri, uning shaxsiyati, ma‘naviyati uchun hal qiluvchi ahamiyatga egaligi haqida mulohaza yuritadilar. Shu o‘rinda “ko‘klam” so‘zi yoshlik ma‘nosini anglatishi va yoshlikda insonning butun umriga yetgulik yaxshi ishlar qilish lozimligi ko‘zda tutilgan bo‘lishi mumkinligiga ham e‘tibor qaratilishi mumkin. O‘quvchilar she‘rning har bandi oxirida takrorlanayotgan naqorat shaklining shu bandga kelganda o‘zgarganligi sabablari haqida mulohaza yuritishsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu tasodifmi yo bunga boshqa bir sabab bormi? deya o‘ylangan, javobni izlagan o‘quvchilar o‘z o‘rnida ishlatilgan so‘zning ta‘sir kuchini tuyadilar.

Bir bandning tahliliga qaratib: **“She‘rning to‘rtinchi bandini qayta o‘qing. Undagi anduh va shikastalik sabablarini izohlang”, “Maysadagi shudringlar kimlarning ko‘z yoshlari?” ifodasiga munosabat bildiring. Shudring bilan ko‘z yoshi o‘rtasida qanday aloqa bor deb o‘ylaysiz?”, “Bu yerda yotar otam ham uzangidoshlari, Har bahor eslar uni qavmi-qarindoshlari” misralarining hayotiy mazmunini tushuntiring. Shoirning otasi va do‘stlari qayerda yotibdi deb**

o‘ylaysiz?” tarzidagi uch savol o‘quvchilarning ruhiyatida bir oz tushkunlik kayfiyatini paydo qilishi mumkin. Chunki “Iltijo” she’rining mohiyatida shunday ruh mavjud. Qolaversa, hayotda ham shodlik va qayg‘u hamisha yondosh keladi. To‘rt misraga shuncha katta fikrni, hayotiy haqiqatni go‘zal tarzda joylay bilgan shoirning tasvir mahoratiga o‘quvchilarning diqqati qaratilishi kerak. Maysadagi shudringlar tiriklar yoki o‘liklar to‘kkan yosh ekanini aniqlash, inson uchun qiblagoh bo‘lgan ota joy olgan so‘nggi maskan - qabristonning muqaddasligi singari jihatlar bolalar tomonidan ilg‘ab olinadi. Uzangidosh – jo‘ra, o‘rtoq ma‘nolarini anglatib, lirik qahramonning otasi va uning jo‘ralari ham ushbu qabristondan joy olgani shu yo‘sin tasvirlangani tushunilishi lozim. Tirilish, jonlanish fasli bo‘lmish ko‘klamda tiriklikdan ketganlar yodga tushadi. Shuning uchun ham shoir: **“Har bahor eslar uni qavmu qarindoshlari”**,- deb yozadi.

”Yoz bo‘yi qorga zorman, qishda bahorga zorman” misrasini tahlil etish o‘quvchilarni odamning tabiati haqida mustaqil mulohaza yuritishga undashi bilan o‘zligini taftish etish va nazorat qilishga yo‘naltiradi. Har qanday odamda o‘zgalar orqali o‘zni anglash, o‘zni anglash bilan Allohni tanish boshlanadi. She’rning tahlili mobaynida inson ruhiyatining murakkabligi, uning na sovuqqa va na issiqqa chidolmasligi singari jihatlariga to‘xtalinadi. O‘quvchilarning o‘qituvchi bilan sheriklikda amalga oshirgan tahlildan keyin ular she’rni yod olishga qiziqib qolishlari aniq.

Birinchi darsda o‘rganilishi kerak bo‘lgan **“Armon”** she’rida shoir ko‘nglidagi armonlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan hayotiy haqiqat va ruhiy holatlar ifodasini topgan. To‘rt bandlik she’r matni yuzasidan **„Bobomning orzulari amalga oshmas bo‘lsa”** misrasida gap nima haqda boryapti deb o‘ylaysiz?”, **“Qo‘shiqlarim bog‘lardan, tog‘lardan oshmas bo‘lsa”** satrida armonu qayg‘uga asos bo‘ladigan qanday ma‘no bor? Shoir uchun bu holning nimasi fojiali ekanini tushuntirishga urining”, **“Birinchi band so‘ngidagi: “Ko‘nglimda armon yotar cho‘kib qolgan nor misol“** misrasida bayon etilgan armon ko‘lamini izohlang. Ushbu satrdagi **“cho‘kib qolgan nor”** tashbihiga e‘tibor qiling. Shu misra **„cho‘kib yotgan nor“** tarzida berilsa, mazmunda qanday o‘zgarish

bo'lardi?", "Lirik qahramonda armon paydo qilayotgan sabablar orasida "Bir mard bilan nopokning yo'lini tutash ko'rsam" tarzidagi tasvirga e'tibor qilib, uni izohlang", „Bir betayin betayin kimsaning oyog'ida bosh ko'rsam“ satrida ifodalangan hayotiy va ma'joziy ma'nolarni tushuntirishga urining, misraning ifoda tarziga e'tibor bering", "Ikkinchi band so'ngidagi misrada ko'ngilda paydo bo'lgan armon „...terskaydagi qor“ga o'xshatilayotgani sababini tushuntiring. „Terskaydagi qor“ tushunchasini izohlang", „Aro yo'lda qolguday bo'lsa biror yo'ldoshim“ satrida g'amga sabab bo'ladigan qanday jihat bor deb o'ylaysiz?", „Gulzorni alaf bossa, zog' bossa bog'bon turib, Muallaq qolsa kimdir, yer turib, osmon turib“ misralari mazmunini izohlang. Tashbihlarning aniqligi bilan ifodadagi shartlilik orasidagi mantiqiy bog'lanishga e'tibor qiling", „Bir yo'rtoq yo'l boshlasa, qudratli karvon turib“ misrasi orqali shoir ifodalamoqchi bo'lgan vaziyatni izohlang. Yo'rtoqning yo'lboshchiligida shoir noroziligiga sabab bo'ladigan nima bor deb o'ylaysiz?", "She'r bandlari lirik qahramonning anduhli holati tasvirlangan kalta misralar bilan tugallanganligiga diqqat qiling. Qaysi bandda qayg'u, armon kuchliroq berilgan? Buni siz qanday aniqladingiz?" tarzidagi o'ndan ortiq savol-topshiriq berish mumkin. Ularda she'rdagi o'quvchilar nazaridan o'tishi kerak bo'lgan biror detalning ham e'tibordan chetda qolmasligiga harakat qilish kerak. O'qituvchi o'zi tuzgan savol-topshiriqlarni navbati bilan o'rtaga tashlab, o'quvchilarni javob topishga yo'naltirishi kerak. Savol-topshiriqlarga javob berish jarayonida o'quvchi she'rning mohiyatiga kirib boradi. She'rni o'qish asnosida o'qituvchi tuygan lazzatni, hissiyotni asar ustida ishlash barobarida o'zi ham his qiladi. She'r tahlili jarayonida his etilishi kerak tuyg'u, anglanishi lozim holatlar o'quvchiga tayyor holda berilmay, ular tahlil asnosida yuzaga kelishi zarur. U tahlil jarayonida o'zi qilgan kashfiyotlaridan, tuygan lazzatlardan rohatlanadi, ko'nglidan o'tgan og'riqlardan iztirob chekadi. O'quvchilar asar tahliliga tortilar ekan, she'r misralarida ifodalanayotgan katta-kichik har bir hayotiy haqiqat, shoir ko'nglida armon, o'kinch hissini paydo qilayotgan sabablar haqida mulohaza yuritishlari kerak bo'ladi. Bunda o'smirlar o'z ko'ngillariga, ruhiyatiga nazar tashlaydilar.

To'ra Sulaymon ijodini o'rgatishga ajratilgan ikkinchi darsda shoirning **"Tavallo"** she'ri o'qib, tahlil qilinadi. O'qituvchi bu she'rni o'qishga tayyorgarlik jarayonida uning ruhini, ohangini belgilab olishi kerak. O'quvchi she'riy so'zning ruhiga kira olgandagina, poetik so'z unga ta'sir ko'rsatadi. Yana shuni ham aytish kerakki, she'rning har bir bandi oxiridagi ikki misra o'ta nozik, sezilar-sezilmas inja ohangni talab qiladi. Shoir she'rning ifoda tarzidagi chinlik bilan o'quvchilar ko'nglini rom qiladi. Adabiyot darslari - ko'ngil mashg'ulotlari. She'rning o'qilish ohangi va mazmunidagi ta'sir zo'ridan mutolaadan so'ng sinfda ma'lum muddat sukunat hukmronlik qiladi. Ko'pchilik badiiy so'z ta'siridan birdaniga chiqib ketolmaydi. O'qituvchi bunday vaziyatda o'quvchilarni shoshirmagani, qandaydir soniyalar mobaynida o'z-o'zi bilan qolishlariga imkon bergani ma'qul. O'quvchilar tushkun holatdan chiqa boshlaganlarida, sinfda ovozlari, bezovtalik paydo bo'la boshlagandagina she'r tahliliga o'tiladi.

O'quvchilar **"Ham egilib, bu egilmas bosh"** misrasi orqali ifodalanayotgan holatni aniqlash mobaynida lirik qahramon va shoir shaxsiga baho beradilar. O'sib kelayotgan avlodning ma'naviy kamolotiga shoirlar asarlari satrlariga singdirilgan shaxsi, o'zligi aks etgan tasvirlar bilan ham ta'sir qiladilar. O'quvchilar uchun **"Qaytar bo'lsam quruq qo'l ovdan"** misrasi orqali shoir odam hayotidagi omadsiz onlarni nazarda tutayotganini tushunish foydali bo'ladi. Ular **"Ortda tursam qalbi quroqdin, Qadrim xarob bo'lsa tuproqdin"** misralarida ifodalangan holat avvalgi bandlardagi tushkun vaziyatlardan og'irroqmi yoki yengilroq ekanini anglay bilishlari zarur. "Qalbi quroq" tashbihining ma'nosini tushunish o'smirlar ma'naviyatini yuksalishiga xizmat qiladi. Bolalar og'a-inilar o'rtasidagi kelishmovchiliklardan ona qalbi chekkan cheksiz ozor she'rda qanday tasvirlanganiga e'tibor qilsalar, asarda ifodalangan holatlarga qo'shimcha bo'ladigan fikrlar ham aytishlari mumkin. Bu o'rinda o'quvchilar asar matnidan tashqari, o'zlarining hayotiy tajribalarini faollashtiradilar. Aka-ukalari, opa-singillari bilan munosabatining onalariga ta'sirini ko'ngillaridan o'tkazadilar. Onalariga bo'lgan muhabbatlari haqqi nimalardandir iztirob chekadilar, nelardandir quvonadilar.

Ko'ngillarida ayash, achinish, afsus hislari uyg'onadi. Bunday sezimlarni tuymoq inson ma'naviy kamolotida katta o'rin tutadi.

“Sinalmoqning gali kelganda” misrasida qahramon holati va onaizor muhabbati orasidagi bog'liq jihatni topishga urinish o'smirlarni insoniy munosabatlarga sinchiklab qarashga o'rgatadi. “Sinalmoq” deyiganda nima nazarda tutilishi mumkinligi haqida o'quvchilar mustaqil fikr bildirganlari ma'qul. Kishining hayotida sinovlar ko'pligi, bulardan insonning qanday o'tishi uning shaxsi, ma'naviyati butunligiga bog'liq ekani eslab qo'yilishi lozim. Insonga berilgan umr, yashalgan har bir kun, olingan har bir nafas sinovdir. Ba'zan inson sinovlardan azob bilan o'tadi. Ana shunday qaltis vaqtlarda kishiga onadan-da yaqin, undan-da ichkuyar kishining bo'lishi mumkin emasligi o'quvchilar tomonidan anglab yetilsa, pedagogik maqsadga erishilgan bo'ladi.

O'quvchilar shoirning: **“Nomim qolmas bo'lsa jahonda”** misrasi orqali hayotda iz qoldirmagan kishining onasi chekadigan azoblarni tilga olinganini, **“Yog'och otga yonma-yon bo'lsam”** satri orqali esa o'lim bilan yuzlashgan odam holati chizilayotganini izohlashlari kerak. She'ning har bir bandi so'ngida takrorlanib kelgan **“Bir mushtipar Onam yig'laydir, Qolganlari yolg'on yig'laydir”** ta'kidi orqali onaning farzandga muhabbati boshqalarning sadoqatiga qarshi qo'yilmay, balki o'zgalar bilan onaning cheksiz muhabbati solishtirilayotgani ilg'ab olinishi kerak. **“Qolganlari yolg'on yig'laydir”** misrasida qo'llangan “yolg'on” so'zini o'quvchilar to'g'ri ma'noda tushunib qolmasliklari kerak. O'quvchi onalik tuyg'usi faqat onalardagina bo'lishini, bunga jigarlik-tug'ishganlik tuyg'usi ham, yorlik hissi ham, do'stlik muhabbati ham tenglasha olmasligini anglashi kerak. Onalarday bo'la olmaslik, unday yig'lay olmaslik jigar, yor, do'stlarning kamchiligi emas. O'quvchilar bu yo'riqdagi fikrlarini she'rdan olingan misollar asosida isbotlaganlari ma'qul.

“She'ning so'nggi bandida shoir nima uchun ilohga murojaat qildi deb o'ylaysiz? Siz shoirning bu tilagiga qo'shilasizmi?” yo'sinida savol qo'yilsa, mulohazali o'quvchilar jiddiy o'yg'a toladi. Inson hayotida uning xohish-irodasiga bog'liq bo'lmagan holatlar ko'p uchraydi. Odam ba'zi ishlarga vijdon amri, sog'lom

aqli bilan qo‘l ura, ba’zilarini majburiyat tufayli yoki tuyg‘ular yetovida qiladi. Ular hamisha ham ijtimoiy va ma’naviy talablarga, insoniy o‘lchamlarga mos kelavermaydi. Bu ishlarning natijasi ijobiy bo‘lsa, ko‘pchilik quvonadi. Salbiy bo‘lsa, jigarlar, qondosh-qarindoshlar, dildosh do‘stlar kuyunadi, achinadi. Dili og‘riydi, iztirob chekadi. Lekin hech biri Onachalik kuymaydi. Faqat Onagina o‘zligidan chiqib bo‘zlaydi. Faqat Onagina butun qalbi bilan eziladi. Faqat Onagina, har qanday vaziyatda bolasiga xiyonat qilmaydi. Shu haqiqatni chin dildan his qila olgan odamgina ilohga *“Yig‘latmagin mushfiq Onamni, Volidai muhtaramamni”*, -deya tavallo etadi. Bu yig‘i ona uchun ham, bola uchun ham juda-juda qimmatga tushishini bilgan kishigina shunday iltijo qiladi.

Ikkinchi darsda o‘rgatish rejalashtirilgan navbatdagi she‘r mashhur **“Gul bir yon, chaman bir yon”** asaridir. To‘ra Sulaymonning ko‘p she‘rlari juda chiroyli qo‘shiq bo‘lgan. Ushbu bitik ham tojikistonlik taniqli xonanda Abdurauf Olimov tomonidan juda ta’sirchan qo‘shiq qilingan. Agar o‘qituvchi mazkur she‘rni qo‘shiq holda o‘quvchilarga eshittirish imkonini topa olsa, dars yuqori samara bilan o‘tishi tayin. O‘qituvchi ushbu she‘r yaratilishining o‘ziga xos qisqa tarixi bilan bolalarni tanishtirsa, ular uchun asarni o‘rganish maroqli bo‘ladi. Mazkur she‘rning yozilishiga Kommuna Ahmedova ismli yosh o‘qituvchi qiz sabab bo‘ladi. Asli Farg‘ona viloyatining Buvayda tumanidan bo‘lgan Kommuna shoirning qizi Yulduz bilan institutda birga o‘qishgan va yaqin dugona bo‘lishgan. 1986- yilning avji yoz kunlarining birida Guliston shahriga endigina kelin bo‘lib tushgan farg‘onalik Kommuna dugonasi va kursdoshi Yulduz bilan birga shifoxonada davolanayotgan To‘ra Sulaymonni ko‘rishga borishadi. Bemorligi sabab dunyo ko‘ziga tor ko‘rinib turgan injiq shoir sochlari qirqkokil qilib o‘rilgan go‘zal kelinchakning o‘zbekona odobini, mehribonligi va ajib lutfini ko‘rib, hayratga tushadi. Olam go‘zalroq va yashashga arziydiganroq, chekayotgan dardi yengilroq tuyulib ketadi. Qizlar ketishi bilan **“Gul bir yon, chaman bir yon”** she‘rini yozadi. Insoniy go‘zallik, o‘zbekona joziba, mehr shoirga kuchli ta’sir ko‘rsatib, uni ruhiy muvozanatdan chiqargan va yashashga intilish uyg‘otgan edi.

Go‘zallik va muhabbatning o‘ziga xos madhiyasi bo‘lgan bu she‘r tahlili mobaynida o‘quvchilar o‘zini Go‘ro‘g‘li sulton bilan tenglayotgan oshiq shaxsiyatini kashf qiladilar. Unga xos bo‘lgan, kishi ko‘ngliga tez o‘rnashib oladigan xususiyatlarni tuyadilar. She‘rdagi: **“Chaman ichida bir gul, gul bir yon, chaman bir yon”** misrasi mazmunini izohlash o‘smirlarning estetik didi rivojiga ta‘sir ko‘rsatadi. Shoirning: **“O‘sgan bog‘iga olqov, o‘stirgan bog‘boniga, Xavfu xatardan saqlab kelgan soyaboniga”** so‘zlarida olqish kimning sha‘niga qaratilganini aniqlash bolalarni analitik fikrlashga undaydi. Shoir kishi bilmas qilib, shunday go‘zalni yetishtirgan vatani va ulg‘aytirgan ota-onasiga olqish yog‘diradi. Shoirning ma‘shuqa vasfi borasidagi: **“Maqtoviga men bir yon, borliq suxandon bir yon”** tarzidagi faxriyasida o‘z ijodiy qudratiga ishonch qanday ifodalanganini tuyish bolalar shaxsi rivoji uchun muhim ahamiyatga ega.

O‘smirlar she‘rning uchinchi bandi nima sababdan boshqalariga o‘xshamagan tarzda qofiyalangani haqida o‘ylab ko‘rganlari ma‘qul. Bolalar ma‘shuqa tasviridagi milliy va an‘anaviy jihatlarga e‘tibor qilishlari: **“Bu olamda oy tanho, muborak quyosh tanho, Bo‘y qizlarning ichida bir shu egma qosh tanho”** misralariga o‘xshab ketadigan badiiy ifodalarni boshqa asarlarda, misol uchun, xalq dostonlarida uchratgan-uchratmaganliklari to‘g‘risida o‘ylab ko‘rganlari foydali. “Bo‘y qizlar” ifodasining ma‘nosini tushunish she‘rni teranroq anglash imkonini beradi. Bu birikmaning “bo‘yi yetgan”, “turmushga chiqmagan” kabi ma‘nolarni anglatishini ayrim bolalar bilishlari ham mumkin. Bilganlar bilmaganlarga o‘rgatadi. She‘rdagi **“Go‘ro‘g‘li sulton bir yon, To‘ra Sulaymon bir yon”** misrasidagi ijodiy iftixor tuyg‘usini o‘smirlar anglab yetishlari kerak. Qizning oshiq bilangina sirdosh bo‘lishi she‘rning lirik qahramoni ko‘nglida yor visoliga umid uyg‘otadi. Muhabbatdan kuch olgan yigit o‘zida Go‘ro‘g‘li sulton bilan bellashishga qudrat sezadi. Muhabbat kishini yuksaltiradi. Uni jasoratlarga undaydi. Baland ishlar sari rag‘batlantiradi. Buni anglab yetgan o‘quvchilar shoirning xalq dostonlarning mashhur qahramoni bilan qay sohada bellashayotganiga e‘tibor qaratishadi. Bolalar To‘ra Sulaymon she‘rlaridagi o‘zbekona ruh, kishini yuksak ma‘naviy marralarni egallashga

chorlovchi da'vat tuyg'ularini anglab yetsalar, adabiy ta'limdan kutilgan samaraga erishiladi.

Adabiyotlar tahlili va adabiy ta'lim amaliyotini kuzatish quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

1. To'ra Sulaymon lirikasini yuqoridagi tahlillar asosida o'rganish o'quvchilarga asarning asl badiiy qimmatini to'laroq anglash, ulardagi obrazlarga tirik timsol sifatida yondashish, timsollar mohiyatini teranroq tushunish imkonini beradi.

2. Ular ulug' shoir asarlarini emotsional ta'sir qudrati badiiy tahlil asosida kirishsalar o'quvchilar o'zaro bahs-munozara asnosida asarlarning mohiyatini teranroq anglaydilar.

3. O'quvchilarda samarali muloqot va o'z fikrini to'g'ri, ravon, ifodali bayon etish hamda asosli himoya qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

4. Adabiyot darslari - ko'ngil mashg'ulotlari. She'rning o'qilish ohangi va mazmunidagi ta'sir zo'ridan mutolaadan so'ng sinfda ma'lum muddat sukunat hukmronlik qiladi. Ko'pchilik badiiy so'z ta'siridan birdaniga chiqib ketolmaydi. O'qituvchi bunday vaziyatda o'quvchilarni shoshirmagani, qandaydir soniyalar mobaynida o'z-o'zi bilan qolishlariga imkon bergani ma'qul.

5. O'quvchilar To'ra Sulaymon she'rlaridagi o'zbekona ruh, kishini yuksak ma'naviy marralarni egallashga chorlovchi da'vat tuyg'ularini anglab yetsalar, adabiy ta'limdan kutilgan samaraga erishiladi.

III BOB. HAMKORLIK TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA T.SULAYMON ASARLARINI O'QITISH YO'LLARI

Sho'ro davrida metodist olim va o'qituvchilar maktabda shoir va yozuvchilar ijodini o'rganish metodikasiga oid anchagina asarlar yaratdilar. Unda o'qituvchining ma'ruzasi matnni tahlil qilishning asosiy metodlaridan biri ekanligi, o'qituvchi, albatta, doston syujetini to'liq so'zlab berishi zarurligi alohida uqtirilgan. O'qituvchi darslikda berilgan asarlarni to'liq so'zlab bergach, o'quvchilar doston matnining nasriy bayonini uyda o'qib kelishlari, so'ng darslikda berilgan savollar asosida suhbatga tayyorgarlik ko'rishlari ta'kidlangan. Ko'rinib turibdiki, bu yondashuv o'sha davr metodikasi holatidan kelib chiqqan bo'lib, metodika ilmi va o'qitish amaliyotining bugungi talablariga zid keladigan anchagina jihatlarga ega.

Agar yuqoridagi fikrlarga amal qilingudek bo'lsa, o'quvchilar asarlarning matni bilan bevosita tanishmaydilar, uning buyuk badiiy tarovatidan bahrasiz qoladilar va faqat asarlardagi g'oya hamda qarashlarnigina o'zlashtiradilarki, barkamol shaxs tarbiyalashga qaratilgan adabiy ta'lim uchun bu mutlaqo yetarli bo'lmaydi.

Sobiq sovet davri maktab amaliyotida (o'sha davr tadqiqotlari) badiiy asarlarni o'rganish jarayoniga nazar tashlaganda, tubandagidek bor-yo'g'i ikki-uch mashg'ulot qolipi borligiga guvoh bo'lamiz.

1. O'qituvchining qisqacha kirish so'zi.
2. Asarni o'qish (O'qituvchi o'qiydi).
3. O'quvchilar uchun tushunishi qiyin bo'lgan so'z va ifodalarga izoh berish.
4. Asarni o'quvchilarga o'qitish.
5. Matn tiliga yaqinlashtirib qayta hikoya qilish.

Adib va shoirlarning ijodi o'rganilayotganda oldin o'tilgan mavzu takrorlanadi, ya'ni uy vazifasi tekshiriladi, yozuvchining hayot va ijodi batafsil bayon qilib beriladi, agar biror asardan parcha yodlashga berilgan bo'lsa, o'quvchilar bir-bir turg'izib aytiriladi, yodlamaganlarga tanbeh beriladi. Bu tadbirlarga o'rtacha hajmli bir she'rni tahlil qilishga zo'rg'a ulguradigan 45 daqiqalik mashg'ulotning yarmi sarf

etiladi. So‘ng yangi mavzuga qo‘l urilib, o‘qituvchi adibning hayoti va ijodini so‘zlab beradi. Keyin o‘rganilayotgan asarni avval o‘qituvchi, keyin bir necha o‘quvchi darslikdan ifodali o‘qishga harakat qiladi.

Asarlarni o‘rganishda esa yuqorida qayd etilgan qolipdagi kabi uy vazifasi so‘ralgach, o‘qituvchi syujetni gapirib beradi. Keyin o‘zi o‘qiydi yoki o‘quvchilarga o‘qittiradi. Asardagi obrazlarga to‘xtalib, ularning yaxshi yoki yomon ishlari muhokama qilinadi. Ko‘rinadiki, bu darslar bir qolipda va zerikarli o‘tadi.

Qushni uchishga qafasda o‘rgatib bo‘lmaydi¹, - deydi zamonaviy ta’lim texnikasi bo‘yicha betakror tadqiqotlar muallifi Anatoliy Gin. Xuddi shuning uchun ham o‘quvchilarni fikr qafasidan qutqarish, ta’lim jarayonini ularning tafakkur osmonida erkin parvoz qilishlariga imkon yaratadigan yo‘sinda tashkil etish o‘ta muhimdir.

J.G‘.Yo‘ldoshevning e’tirof etishicha, «O‘quv jarayoniga yangicha qarashning tub mohiyati shundan iboratki, o‘qitishda ichki motivatsiyadan (diqqatni tortish, ichki tuyg‘u, istak, zaruriyatni shakllantirish) kelib chiqish kerak. O‘quv jarayonida asosiy harakatlantiruvchi kuch – o‘quvchi uchun ham, o‘qituvchi uchun ham ichki motivatsiya bo‘lishi kerak. Bunda o‘quvchilar bilim olishga intilishi (xuddi benzini bo‘lmasa, avtomashina o‘rnidan qo‘zg‘ala olmagan kabi, bilim olmasang, sening hayotdagi o‘rning bo‘sh, jamiyatga qo‘shila olmaysan...) va bilim olishga ehtiyoj bo‘lishi kerak, o‘qish maqsadlari ichki ehtiyojga aylanishi kerak»². O‘quvchi real hayotga kirib borishi hamda unda faol ishtirok etishi uchun bilim, ko‘nikma va malakalar bilan birga ilmiy bilish metodlariga ega bo‘lishi kerakligini ongli ravishda tushunib yetishi lozim.

Q.Husanboyevaning tadqiqot ishi adabiy ta’limda o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish yo‘llarini nazariy jihatdan asoslash, ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllantirishda mustaqil fikrlashning o‘rni va ahamiyatini belgilashga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatlidir³. Zero, yangi innovatsion texnologiyalarni

¹ Гин А. Приемы педагогической техники. –Москва: «Вита», 2000. С. 77.

²Yo‘ldoshev J.G‘. Yangi pedagogik texnologiya: yo‘nalishlari, muammolari, yechimlari //Xalq ta’limi j., 1999. 6, -4-6-b.

³ Husanboyeva Q. Adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishning ilmiy-metodik asoslari. Ped.fan.dok. ...diss. avtoref. –T.: 2004.

ta'lim jarayoniga joriy etishdan ko'zlangan maqsad ham o'quvchilarni mustaqil ta'lim olish va erkin fikrlashga rag'batlantirish, ularda bu boradagi ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iboratdir.

Adabiy ta'lim samaradorligini belgilovchi ko'rsatkichlardan biri – bu o'quvchilarda mustaqil, erkin fikrlash qobiliyatining shakllanganligidir. Q.Husanboyeva tomonidan olib borilgan tadqiqotda o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikma va malakalarni shakllantirishga nisbatan zamonaviy (ya'ni, texnologik) yondashuvning mohiyati yetarli darajada ochib berilgan.

M. Sariboyevaning ilmiy izlanishlari o'quvchilarni ta'limiy haqiqatni topish yo'lida mustaqil izlanish va ko'proq fikrlashga o'rgatish usullari tavsiya etilgani bilan ahamiyatlidir. Unga adabiy ta'limdagi eng og'ir jabha hazrat Alisher Navoiy epik asarlarini o'zlashtirishda interfaol usullarni ishlatish yo'llari tadqiq etilgan¹.

Adabiy ta'lim samaradorligini ta'minlovchi hamkorlikda ishlash texnologiyalari - bu adabiy ta'lim bo'yicha Davlat ta'lim standartida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarning minimum darajalarini o'quvchilar tomonidan kam jismoniy kuch va vaqt sarflash hisobiga puxta o'zlashtirilishini ta'minlovchi faoliyat mazmuni bo'lib, unda eng maqbul, samarali shakl, metod va vositalar o'z aksini topadi.

Adabiy ta'limni o'qitishda samaradorlikka erishish ushbu jarayonlarni ijodiy va texnologik yondashuv asosida tashkil etish hisobiga ta'minlanadi. Mazkur vaziyatlarda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

1. Har bir dars(mashg'ulot)ni metodik jihatdan puxta asoslangan loyihaga muvofiq tashkil etish.
2. Loyihada o'quv materialining yaxlit holda, shuningdek, uni muayyan qismlarga ajratish asosida o'rganish uchun maqbul shakl, metod va vositalarning to'g'ri tanlanishiga erishish.

¹ M. Sariboyeva. Umumta'lim maktablarida Alisher Navoiy epik asarlarini zamonaviy usullarda o'rgatish. Ped. fan. nom... diss. –T.: 2011. – 163 b.

3. Loyihada o'quvchilarning mustaqil faoliyat yuritishlari, o'quv materialini o'rganishga nisbatan ijodiy yondashuvlarga erishishni ta'minlovchi holatlarning aks etishi.

4. Loyihada maqsadning natijalanishini kafolatlovchi omillarning o'z ifodasini topishi.

5. O'quv materialining mohiyati, janri va uning g'oyasiga tayangan holda unga muvofiq samarali nazorat topshiriqlar (test, og'zaki suhbat, yozma ishlar, bayon, insho, referat tayyorlash va hokozolar)ning belgilanishiga erishish.

Hamkorlik texnologiyasi. Bu texnologiya demokratiya, hamkorlik, tenglik kabi g'oyalar asosiga qurilgan. O'qituvchi va o'quvchi orasidagi munosabatlar sub'ekt - sub'ekt sifatida qaraladi. Birgalikda ta'lim jarayoni tashkil etiladi va birgalikda ijod etiladi.

Hamkorlikda o'qitish g'oyasi turli mamlakatlardagi jumladan Amerikadagi J.Xopkins universiteti professori R.Slavin (1990), Minnesot universiteti professorlari R.Jonson, D.Jonson (1987), Kaliforniya universiteti professori J.Aronson (1978), Izroildagi Tel-Aviv universiteti professori Sh.Sharan (1988) tomonidan ishlab chiqilgan.

Izroil va Yevropa olimlari tomonidan tavsiya etilgan hamkorlikda o'qitish yuqorida qayd etilganlar bilan bir qatorda, ko'proq o'quvchilar tomonidan o'quv materialini qayta ishlash, loyihalash faoliyatini rivojlantirish, o'quv bahsi va munozaralar o'tkazishni nazarda tutadi.

Mazkur g'oyalar bir-birini to'ldiradi, didaktik jihatdan boyitadi va bir-birini taqozo etadi.

Hamkorlikda o'qitish g'oyasi didaktikada 1970-yillarda paydo bo'lgan. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi Buyuk Britaniya, Kanada, G'arbiy Germaniya, Avstraliya, Niderlandiya, Yaponiya, Izroil mamlakatlari ta'lim muassasalarida keng qo'llanila boshlagan.

Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarni nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o'qishni o'rganishdir.

Hamkorlikda o'qitish har bir o'quvchini kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida ongli mustaqillikni tarbiyalash, har bir o'quvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda ma'suliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi.

O'qituvchi ta'lim jarayonida hamkorlikda o'qitish metodlaridan foydalanish maqsadida quyidagilarni:

- qaysi mavzularni hamkorlikda o'qitish metodlaridan foydalanib o'rganish mumkinligini aniqlashi va mazkur darslarni taqvim-rejada belgilashi;
- ushbu mavzu bo'yicha o'quvchilarga tavsiya etiladigan o'quv topshiriqlari va ularni bajarish yuzasidan ko'rsatmalarni tayyorlashi;
- hamkorlikda o'qitish metodlaridan foydalanib, o'tiladigan dars turi, dars strukturasi va borishini loyihalashi;
- o'tgan va yangi mavzular yuzasidan o'quvchilar bilimini nazorat qilish uchun test topshiriqlarini tuzishi kerak.

Mazkur metodlardan foydalanganda shuni nazarda tutish kerakki, o'quvchilar o'z sheriklari bilan hamkorlikda o'quv topshiriqlarni to'g'ri bajarishlari barobarida guruh a'zolarining faolligi, hamkorlikning vujudga kelishi, ular o'rtasidagi muloqotda muloqot madaniyati tamoyillariga amal qilinishi ham hisobga olinadi.

Shunday qilib, guruh a'zolari bir vaqtning o'zida ikkita topshiriqni bajaradi:

1. Akademik topshiriq - bilish va ijodiy izlanish orqali o'quv topshiriqlaridan ko'zlangan maqsadga erishish;
2. Ijtimoiy-psixologik topshiriq - dars davomida yuksak muloqot madaniyatiga ega bo'lish, odob osoyishtaligini saqlash;

O'qituvchi har ikkala topshiriqning yuqori saviyada bajarilishini nazorat qiladi.

O'qituvchi ta'lim jarayonida hamkorlikda o'qitish metodlaridan foydalanishi uchun ushbu texnologiyaning o'ziga xos xususiyatlariga oid bilim, ko'nikma va malakalarni, o'quvchilarning mustaqil ishlari, o'quv bahsi va munozaralarni samarali tashkil etish yo'llarini egallagan, o'quvchilarda esa darslik, adabiyotlar ustida mustaqil va ijodiy ishlash, o'z fikrini qisqa va aniq bayon etish, fikrlarni asoslash va

dalillash, mantiqiy fikr yuritish, o'quv bahsi va munozaralarda faol qatnashish ko'nikmalarini shakllantirgan va ongli intizomni vujudga keltirgan bo'lishi lozim.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining bir nechta metodlari mavjud:

Guruhda o'qitish (R.Slavin) da o'quvchilar teng sonli ikkita guruhga ajratiladi. Har ikkala komanda bir xil topshiriqni bajaradi. Guruh a'zolari o'quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir o'quvchi mavzudan ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishiga e'tiborni qaratadi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi mualliflaridan biri bo'lgan R.Slavinning ta'kidlashicha, o'quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish bo'yicha ko'rsatma berilishi yetarli emas. O'quvchilar o'rtasida tom ma'nodagi hamkorlik, har bir o'quvchining qo'lga kiritgan muvaffaqiyatidan quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi zarur. Mazkur texnologiyada o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir o'quvchining kundalik natijasi avval qo'lga kiritilgan natija bilan taqqoslanadi. Shundagina o'quvchilar o'zining dars davomida erishgan natijasi guruhga foyda keltirishini anglagan holda ma'suliyatni his qilib, ko'proq izlanishga, bilim, ko'nikma va malakalarni puxta o'zlashtirishga intiladi.

Kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish (R.Slavin 1986). Bu yondashuvda kichik guruhlar 4 ta o'quvchidan tashkil topadi. O'quvchilarga berilgan o'quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir o'quvchi topshiriqning ma'lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o'quvchi o'zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o'rtoqlarini o'qitadi, so'ngra guruh a'zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi. O'qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test topshiriqlari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi.

O'qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so'ngra o'quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O'quvchilarning kichik guruhlardagi o'quv faoliyati o'yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin.

O'quvchilar bilimlarni puxta egallashning yagona yo'li o'z hamkorining axborotini diqqat bilan tinglash ekanligini anglagan holda, mushohada yuritishga, kerakli ma'lumotlarni daftarga yozishga harakat qiladi. Bu yerda o'qituvchi faqat

o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etadigan tashkilotchi vazifasini bajaradi. Dars oxirida o'qituvchi o'quvchilarning bilim darajasini test topshiriqlari yordamida aniqlaydi. Har bir o'quvchining bilimi sifatidagi o'sish hisobga olinadi.

Ta'limning hamkorlikda ta'lim olish modeli-o'quvchilarning mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta'lim olishini ko'zda tutadigan usul. O'quvchilarning qobiliyati turlicha bo'lib, ba'zilar o'qituvchining aytganlarini tez tushunishadi va ular muloqot qilish ko'nikmalarini ham tez egallashadi. Ba'zi o'quvchilarda bu jarayon qiyinchilik bilan kechadi, ya'ni buning uchun nafaqat ko'proq vaqt, balki o'quv materialni mazmunini ma'nosini to'liq tushunib yetishlari uchun qo'shimcha topshiriqlar yoki tushuntirishlar olib borilishi talab qilinadi. Bunday o'quvchilar dars jarayonida boshqa o'quvchilar oldida savol berishga, tushunmaganlarini oydinlashtirishga tortinishadi. Xatto, ba'zi o'quvchilar tushunmaganliklarini tan olishmaydi yoki to'g'ri izohlay olishmaydi. O'quvchilarning o'quv faoliyatida o'rganilayotgan materialni tushunishi ta'limdagi eng muhim psixologik-pedagogik jarayon hisoblanadi. Tushunish biror hodisani tushunish, bu hodisaning mohiyatini ochish va anglash demakdir. Hodisaning kelib chiqish manbalari, sabab va oqibatlari, boshqa hodisalar bilan uni o'rab turgan hodisalarning xarakterli belgilarini bilishni tushunamiz. Tushunish real borliqdagi obektiv jarayon va faoliyatlarni to'g'ri va to'la inson ongiga akslanishidir. Agar o'quvchi darsda faol va mustaqil faoliyat ko'rsatmasa, o'quv ishlari samarali bo'lmaydi.

Har qanday o'qitish jarayoni hamisha ta'limni boshqarish yo'sini, o'qitish tizimi va o'quvchilarning axborot (bilim) o'zlashtirish yo'sinidan yuzaga keladi. Axborot almashinish (pedagogikada bilim berish va olish) yo'sinini, shartli ravishda axborotlar oqimi tarzida tasavvur qilinsa, uning qayoqdan qayoqqa qarab yo'naltirilganligi ta'limning tabiatini belgilaydi, deb aytish mumkin. Ya'ni o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilimlarning o'qituvchidan o'quvchiga yo o'qituvchi bilan o'quvchilardan o'quvchilarga yoki o'quvchilarning o'zlaridan ularning o'zlariga qarab yo'naltirilishi ta'limni amalga oshirishning yo'l va usullarini belgilaydigan omillardir.

O‘quvchilar bilan hamkorlikda quyidagi usullar bilan dars darayonini tashkil etish mumkin.

1 –jadval

Hamkorlikda o‘qitish usullari

№	Ta’lim usullari	Ta’lim usullarining mazmun va mohiyati
1	“Modifikatsiya-lashgan dars”	Bunda o‘qituvchi darsni o‘quvchilar bilan muloqot tarzida tashkil etib, mavzuni yoritib beradi.
2	“Aqliy hujum”	Bu usuldan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarni bir xil fikrlashdan xalos qilish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab paydo bo‘lgan fikrlarni yechishdir.
3	“Bumerang” texnologiyasi	“Bumerang” texnologiyasi bir mashg‘ulot davomida o‘quv materiallarini chuqur va yaxlit holatda o‘rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin fikr yuritishga yo‘naltirilgan. Bir mashg‘ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan o‘quvchi-o‘quvchi rolida chiqishi mumkin.
4	“Skorobey” texnologiyasi	“Skorobey” texnologiyasi o‘quvchilarda fikriy bog‘liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o‘zining erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi.
5	“Yelpig‘ich” texnologiyasi	Bu texnologiya – murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar muammoli ko‘rinishdagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir yo‘la axborot beriladi. Ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzalliklari va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.
6	“Muammoli vaziyat”	Bunda o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga muammo bilan bog‘liq bo‘lgan hayotiy voqea, hodisalardan misollar keltiriladi. Bu muammoni o‘quvchilar o‘zlari munozara shaklida yechadilar. Fikrlash doirasi kengayadi, muammoni to‘g‘ri yechishga o‘rganadilar.
7	“Tanqidiy tafakkur”	Bu usulda ma’lum bir holat, vaziyat misol qilib o‘rtaga tashlanadi. Masalan, ta’lim-tarbiyaga oid yoki inson hulqidagi kamchiliklar orqali salbiy holat, vaziyatning yuzaga kelishini o‘quvchilar tahlil qiladilar, uni ijodiy hal qilishga o‘rganadilar, mustaqil fikr yuritadilar, bosh qotiradilar. Bu holat vaziyatning yechimini topishga imkoniyat yaratadi.
12	“Muayyan holat va vaziyatni o‘rganish”	O‘qituvchi o‘quvchilarga biror mavzu yuzasidan savol yoki topshiriq beradi, ular esa o‘z imkoniyatlari doirasida tahlil qiladilar, har bir o‘quvchi boshqa bir o‘quvchining fikriga tanqidiy yondashadi. O‘z fikrini asoslashga o‘rganadi. Bu usulni qo‘llashda ma’lum bir tartib-qoidalar ishlab chiqiladi. Masalan, o‘z g‘alalar fikrini bo‘lmasdan oxirigacha tinglash, tanqidni do‘stona qabul qilish, to‘g‘ri tushunish, bir-biri bilan janjallashmaslik va hokazo.

Demak, hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi har bir o‘quvchining tahsil olishdagi muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o‘quv topshiriqlarini sifatli

bajarishga, o'quv materialini puxta o'zlashtirishiga, o'rtoqlariga hamkor bo'lib, o'zaro yordam uyushtirilishiga zamin tayyorlaydi.

Adabiy talim jarayonida usullar mazmunini belgilovchi hamkorlikda ishlashning yana biri didaktik ashyo savollar hisoblanadi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarini mustaqil faoliyatga yo'naltirishga intilgan o'qituvchi savollarni mavzuga mos tarzda shakllantiradi. Shuning o'zi bolaning aqliy faoliyati uchun qulay sharoit yaratadi. Bu bilan o'qituvchi o'quvchilarni kichik yoshidan tayyor qoliplardan qochishga, materialni shunchaki qayta bayon qilmay, qarashlarini ma'lum tayanch fikr atrofiga umumlashtirishga, undan javob uchun zarurini ajratib olishga, fikrini qolipdagi siyqa iboralar orqali emas, o'z so'zlari bilan bayon qilishga o'rgatib boradi.

Milliy tarbiyashunoslikda savolga aqliy faoliyat ko'rinishi tarzida yondashuv S. Matjonov, Q. Husanboyeva va H. Suyunovlarning tadqiqotlarida bo'y ko'rsatgan. S. Matjonov o'z tadqiqot ishida g'oyalarini maktab darsliklaridagi savol-topshiriqlar misolida ochib berishga harakat qilingan. Unda savollar ma'lum guruhlarga ajratilgan, savollarning o'quvchi faoliyatini tashkil etishdagi, ijodiy tafakkurini o'stirishdagi o'rni va ahamiyati xususida so'z yuritilgan¹. Q. Husanboyeva va H. Suyunovlar savollar tafakkurning mantiqiy shakliga daxldorligi, ularning bilimlarni o'zlashtirish jarayonidagi o'rni va roli, bu borada savollarning vazifalari tadqiq qilingan. Savollarning bilimlarni orttirish borasidagi vazifalari nimalardan iborat ekanini ochib berishga harakat qilingan². Savollar tuzish va ulardan o'rni bilan foydalanishning ta'lim usullaridan biri sifatidagi vazifasini ularning aqliy hodisa sifatidagi talqinisiz belgilab bo'lmaydi.

To'ra Sulaymonning lirik asarlarini o'qitishda o'quvchilarning faolligini ta'minlashga qaratilgan interfaol usullardan bir qanchasi maktab amaliyotida sinab ko'rildi va ijobiy natijaga erishildi. Chunonchi, shoir ijodini o'rganishda o'zimiz qo'llagan zamonaviy ta'lim usuli tavsifi dars ishlanmasi) ni keltiramiz.

¹ Matchanov S. Umumta'lim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish. Ped. fan. doktori ...diss. avtoref. –T., 1998.

² Husanboyeva Q. Adabiyot – ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. – T.: Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona nashriyoti, 2009.; Suyunov H. Adabiyot darslarida o'quvchilarni savol-topshiriqlar ustida ishlashga o'rgatish usullari. Ped. fan. nomzodi ... diss. avtoref. – T., 2005.

MAVZU: TO‘RA SULAYMON LIRIKASI


Darsning maqsadi: To‘ra Sulaymon haqida olgan bilimlarini umumlashtirish, ko‘nikma va malakalarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash.

Dars metodlari: an’anaviy, interfaol, modellashtirish.

Dars jihozi: rasmlar, testlar, jadvallar, kitoblar ko‘rgazmasi.

Darsning borishi:

Dars dastlab «Ven diagramasi» strategiyasi asosida olib boriladi. Buning uchun sinf o‘quvchilari 3 guruhga bo‘linadi va guruhlar nomlanadi. Sinf taxtasiga quyidagi tartibda uchta doira chiziladi.



Guruhlarga quyidagi mavzularda kichik matn yaratish vazifalari topshiriladi:

1-guruh –T.Sulaymon Mangulikka dahldor inson.

2-guruh – To‘ra Sulaymon she’rlaridagi o‘zbekona ruh.

3-guruh - To‘ra Sulaymon –kengliklar kuychisi

Yana bir o‘rinda 1-guruhga T.Sulaymon, A.Avloniy va H.H.Niyoziy ijodining o‘xshash jihatlarini va farqlarini taqqoslash vazifasi topshirilishi mumkin.

O‘quvchilar T.Sulaymon ijodiga xos bo‘lgan asarlarni diagrammaning 1-qismiga,

Abdulla Avloniy ijodiga xos bo‘lgan asarlarni diagrammaning 2-qismiga va

H.H.Niyoziy ijodiga xos bo‘lgan asarlarni diagrammaning 3-qismiga yozadilar va 1,2

diagrammalarning kesishmasiga va 2,3 diagrammalarning kesishmasiga har uchala

ijodkorning ijodida uchraydigan bir xil mavzuli asarlar yoziladi.

2-guruhga To‘ra Sulaymon, Abdulla Avloniy va H.H.Niyoziyning yozgan she’riy asarlarini aniqlash va ularni diagrammada aks ettirish vazifasi topshiriladi.

O‘quvchilar diagrammaning 1-qismiga T.Sulaymon ijodiga xos bo‘lgan she’rlarni, 2-qismiga Abdulla Avloniy ijodiga xos bo‘lgan she’rlarni, 3-qismiga H.H.Niyoziy

ijodiga xos bo'lgan she'rlarni yozadilar 1-,2-va 3-diagrammalar kesishmasiga har uchala ijodkorning she'rlaridagi o'xshashlik tomonlari yoziladi.

3-guruhga T.Sulaymon, Abdulla Qodiriy va H.H.Niyoziyning xalq og'zaki ijodiga oid she'rlarining o'xshash va farqli jihatlari aniqlash vazifasi yuklanadi.

Guruhlar vazifalarni bajarib bo'lgach, lider(sardor)lar tanlanadi va sinf taxtasiga chizilgan diagrammani umumlashtirib to'ldiriladi.

Shundan keyin darsning navbatdagi bosqichiga o'tiladi. O'quvchilar darslikdan o'qib, ular orasidagi mantiqiy munosabatlarni sxema tarzida umumlashtiradilar, ya'ni, modellashtiradilar. Bu esa o'quvchilarning fikrini jamlashga, o'quv materialining har bir elementini nazardan chetda qoldirmaslikka va mantiqiy tafakkurini o'stirishga yordam beradi.

O'quv materiallari orasidagi mantiqiy munosabatlarni aniqlash ularni chuqur tushunib, anglab yetishlariga va uzoq muddat esda saqlab qolishlariga imkon yaratadi.

O'quvchilar o'z guruhlarida kengashib, materialni modellashtiradilar, guruh bo'yicha umumlashtirilgan jadval tuziladi. Jadvalada To'ra Sulaymonga zamondosh bo'lgan shoir yoki olimlarning fikrlari yozilgan matn asl holida qanday bo'lsa shunday (slyd orqali) o'qib beriladi. Misol uchun:

ZAMONDOSHLAR	
Umrzoq O'ljaboyev	Ravshan Mahmudov
<p>To'ra aka shoir bo'lganda ham qandaydir mahalliy, hududiy ahamiyatga ega bo'lgan shoirlardan emas edi. U kishi katta adabiyotimizda – hozirgi o'zbek adabiyoti deb ataladigan ulkan ijodiy saltanatda o'z o'rniga, o'z salmog'iga ega bo'lgan ijodkor edi. Agar she'rni gulga qiyos qiladigan bo'lsak, adabiyotimizning bu salobatli bo'stonida To'ra aka ekkan gullarning rangi, hidi va tarovati alohida ajralib, «mana men» deb ayricha ko'zga tashlanib turadi. She'riyat maydoniga xalq og'zaki ijodi namunalarini yozib olish, ularni matbuot sahifalarida e'lon qilib, targ'ib etish orqali kirib kelgan shoir umrining oxiriga qadar ham ijodida shu yo'nalishga, sodda va xalqona ifoda usuli va vositalariga sodiq qoldi. Ana shu oddiy, bizga tanish bo'lgan insoniy holatlar va kechinmalar tasvirida bizga zamondosh bo'lgan lirik qahramon qiyofasini yorqin bir tarzda ifodalab berishga muvaffaq bo'ldi.</p>	<p>To'ra Sulaymon — muhabbat kuychisi. Muhabbat insonni loqaydlikdan, jaholatdan saqlaydi. Muhabbat insonlarni bir-birlariga yaqinlashtiradi, do'stlashtiradi. To'ra Sulaymon — ona kuychisi. Uning she'rlarida onalarning orzu-armonlari, g'am-tashvishlari ishonarli, tabiiy kuylangan.</p> <p>To'ra Sulaymon — baxshi shoir. She'rlari xalq tiliga, diliga yaqin. Shoir xalq og'zaki ijodini yozma adabiyotga yaqinlashtirgan. To'ra Sulaymon she'rlarining aksariyati baxshiyona uslubda yozilgan. Siz biron marta osmonga oy chiqqanda yoki oy to'lib, kunday yorug' bo'lganda uni kuzatganmisiz? Men kuzatganman. Ammo oyning o'rtanganini payqamaganman. Kutilmagan o'xshatish shoirning topqirligidan nishona. Haqiqatan ham, butun bir osmonda yakkaligidan, yolg'izligidan, zerikkanidan, yo'ldoshi, hamsuhbati, dardkashi yo'qligidan oy o'rtanayotgandir. Bu holatni boshidan kechirgan faylasuf shoirgina tiniq osmondagi oyga qarab uning o'rtanganini seza olgan.</p>

Shundan so'ng guruh liderlari guruhlar tomonidan tayyorlangan matn bilan sinf o'quvchilarini tanishtiradilar. Barcha guruhlar o'z fikrlarini izohlab bo'lgach, yuqori darajada faoliyat olib borgan guruh rag'batlantiriladi. Dars davomida guruhlar bilan ishlashda, yangi vazifa berilayotganda guruhdagi o'quvchilarni, liderlarni almashtirib turish lozim. Bu bir guruhga bilimdon o'quvchilar saralanib qolishining oldini oladi va barcha o'quvchilarning faol ishtirok etishlarini ta'minlaydi. O'quv faoliyatini bunday tashkil etish natijasida o'quvchilar uyga vazifa berilmasa ham, shu o'quv materialini ustida bosh qotirishga, ishlashga, izlanishga ishtiyoq sezadilar, yangi-yangi qirralarini ochishga harakat qiladilar, bu esa o'quv materialini mukammal o'zlashtirishlarga zamin yaratadi.

Shoir haqida eng kerakli ma'lumotlar guruhda muhokama etilganidan so'ng shoir she'rlari tahliliga o'tiladi.

Suvlar ham tindi sunbula kelib,
Tinib-tiniqmadi bu ko'nglim, hayhot.

Na bahor, na yozdan, na to‘kin kuzdan
Hecham qoniqmadi bu ko‘nglim, hayhot.

«Qismat» deb atalgan she‘rdan keltirilgan ushbu parchani o‘qiganda qishloq suvrati kishining xayoliga keladi.

Bu yulduzlar kimning kanizagi deb,
Kimni aytar tunning ko‘rk, bezagi deb,
Quyoshning ko‘kdagi egizagi deb,
Osmon o‘rtasinda nozlanadir Oy.

To‘ra Sulaymon uchun Oy nozlangan. Oyning “armonlangani»ni, horg‘in suzayotganligini, bezovtalanganini, tutilganligini, to‘lg‘onganini, iztirobdaligini, to‘xtab qolganligini, ma‘yuslanganligini, azoblanganligini, tebranganligini, o‘rtanganligini, qo‘rg‘onlanganligini sezish, his qilish uchun faqat To‘ra Sulaymon bo‘lish kerak. To‘ra Sulaymon nazari, didi, salohiyati bilan osmonni kuzatish va u haqida mulohaza yuritish lozim. Osmondagi oddiygina suzib ketayotgan oydan ham To‘ra Sulaymon olam-olam ma‘no topadi. Qizig‘i shundaki, bu ma‘nolar, g‘oyalar, fikrlar insonni loqayd qoldirmaydi. Bu she‘r shoir ehtirosining, hissiyotining, idrokining o‘ta kuchliligidan, nozikligidan dalolat beradi.

Chunonchi, uning yuqorida tahlilga tortilgan *“Iltijo”, “Armon”, “Tavallo” va “Gul bir yon, chaman bir yon”* singari she‘rlari o‘quvchilarda mehr, hurmat, ota-onaga, vatanga sadoqat kabi insoniy fazilatlarni uyg‘otadi.

To‘ra Sulaymonning *“Bahor, sensiz sahro-yu tog‘-u toshga jon qayda?”* degan satrlarida qanchalik chuqur hayotiy hikmat bor. Vatangado kimsalarga ishora qilingan ushbu misralar yurtparvarlikning go‘zal namunasi. Bu o‘lmas satrlar bizning bugungi hayotimiz bilan hamohang jaranglaydi.

Sharqona ta‘lim tizimida komil inson, ma‘naviy yuksaklik hamisha bosh maqsad bo‘lib kelgan. Umuman, mazkur muammo davlat buguni va kelajagini hal qilgani uchun barcha davrda hamma uchun muhim sanalgan. T.Sulaymonning xalqona ohanglarda yozilgan *“Bu olamda oy tanho, muborak quyosh tanho, Bo‘y qizlarning ichida bir shu egma qosh tanho”* kabi misralari fikrimiz dalilidir.

To'ra Sulaymon asarlarini o'qigan o'quvchi qalbida beixtiyor o'z Vataniga, uning har bir giyohiga hurmat uyg'onishi shubhasizdir. Quyi sinflarda bu asarlar chuqur his qilinmasdan, shunchaki o'qilishi mumkin, ammo yuqori sinf o'quvchilari chuqur mazmun kasb etgan shoir asarlarini yurakdan his qilib o'qiydilar.

*Bukun qay bir yerda qish, qayda xazonrezgilik,
Qaylarda yoz, qayda kuz, qayda jondan bezgilik,
Ko'klamning har nafasi umrga arzigulik,
Bog'siz, bog'bonsiz yerda ne ham qilsin ezgulik...
Ketma, bahor, mening bog'imdan.*

Demak, adabiyot o'qituvchisi o'quvchilarni ajdodlarimizning dunyo fani va madaniyati, qolaversa, ma'naviyati rivojiga hissa qo'shgan asarlari bilan tanishtirib borar ekan, shunda u'quvchida milliy iftixor tuyg'usi va o'zligini anglash uchun ilmni egallash istagi uyg'onadi.

She'r ifodali qilib o'qib beriladi va o'quvchilar savol va topshiriqlar orqali she'rni tahlil etadilar. Har bir qatordagi juftlik kelishilgan holda, o'z fikrlarini bayon etadi. Savollarga ketma-ketlikda javob beriladi. Bunday usul «Charxpalak» deb nomlanadi. Bu usulda ishlash juda ham qulay.

Sinf o'quvchilari uch guruhga bo'linadi. Har bir qator tarqatmali material oladi, tarqatmaga she'r yuzasidan savollar yozilgan bo'ladi. Birinchi guruh beshta savolning har biriga juftlik tarzida javob berishadi. Ya'ni, birinchi juftlik birinchi savolga, ikkinchi juftlik ikkinchi savolga, uchinchi juftlik uchinchi savolga va shu tarzda beshta savolga javob beriladi. Ish yakunida umumiy xulosa chiqariladi.

Uyga vazifa sifatida T.Sulaymonning she'rlaridan yod olish va o'tilganlarni mustahkamlab kelish topshirig'i beriladi.

Uyga vazifani bajara olmagan o'quvchilar bilan quyidagi tarzda ishlanadi. Buning uchun xattaxtada ro'yxati keltirilgan va uyga vazifani bajargan o'quvchilarga bajarmaganlari biriktiriladi. Agar bajarganlar kamchilik, masalan, 3 yoki 4 nafar bo'lsa, sinf o'quvchilarini shu o'quvchilar soniga teng guruhlariga bo'linadi. Ya'ni 4ta guruhga bo'linadi va to'rtala guruhga uyga vazifani bajarib kelganlar biriktiriladi.

O'qituvchi faol o'quvchilarga quyidagicha topshiriq beradi: guruhingizdagi o'rtoqlaringizga parchani bo'lib bering va shu qismni yodlashlarini nazorat qiling.

Izoh. Bu usul uyga vazifani bajara olmagan o'quvchilar bilan alohida ishni tashkil qilishda qo'llaniladi. Bunda oldindan faol o'quvchi sust, uyda vazifa qilishga vaqti bo'lmagan yoki boshqa sabablarga ko'ra qila olmagan, imkoni o'zinikiga teng o'rtoqlari bilan ishlaganda o'zaro hurmat va yordam ustuvorligini anglamog'i uqtirilgan bo'lishi lozim. Bu usul ahamiyati barcha o'quvchining jarayonda ishtirok etishini ta'minlash va keyingi bosqichlarda uyga vazifani tayyorlash muhimligini anglatish bilan belgilanadi. Uyga vazifani baholashda xattaxtada ro'yxati keltirilgan o'quvchilardan tashqari guruhdagi ishlari bilan ijobiy natijaga erishganlari ham baholanadi. Aynan shu vaziyat o'zlashtirishi sust o'quvchilarga tabaqalashgan tarzda yondashuvni ta'minlaydi. Chunki sust o'zlashtiruvchi o'quvchi bor guruhda ishlaganda unga yodlash emas, balki ifodali o'qish topshirilishi ham mumkin. Ya'ni u guruhdoshlariga parchani ifodali o'qib beradi. Guruhdoshlari esa imkoniyatini bilganliklari uchun uni qo'llashadi. Bundan tashqari ushbu darsda o'quvchilarga shoir ijodi yuzasidan test savollari tarqatiladi, ular orqali o'quvchilarning bilimi, ko'nikma va malakalari baholanadi.

Uchinchi bobda bildirilgan nazariy fikrlar va amalga oshirilgan amaliy tadbirlarning natijalariga tayanib, quyidagicha ilmiy xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Hamkorlikdagi ta'lim usullari o'qituvchidan har bir darsga alohida tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi. Chunki biror bir interfaol usulni tanlab amaliyotga qo'llashdan oldin o'qituvchi:

- ushbu usulning o'z o'quvchilarining yoshi, rivojlanish darajasi, qiziqishlari, aqliy imkoniyatiga mos kelishiga;
- ayrim interfaol usullar sinf xonasida o'quvchilarning tez-tez joy o'zgartirishi, harakatlanishini taqozo etgani uchun sinf xonasida bemalol harakatlanish maydonining mavjudligiga;
- mavzu maqsadi, turi, mavzusi uning mazmuniga to'g'ri kelishiga;
- darsdan kutilayotgan maqsadga erishish uchun sarf qilinadigan vaqt chegaralanganiga;

- darsda lozim bo'lgan didaktik va texnik vositalarning mavjudligiga;
- dars jarayonida sodir bo'ladigan chekinishlar, taktikaning o'zgarishi kabi holatlarda alternativ yondashuvlarni qo'llashga tayyor bo'lishi lozim.

2. Ta'lim jarayonida hamkorlikda o'qitish usullardan foydalanishda o'quvchilarning imkoniyatlari bu usullarning maqsad va vazifalariga mos kelishi, o'qituvchining o'quvchilar guruhlariga ta'sir ko'rsata olish layoqatiga egaligi ta'lim samaradorligini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

3. Agar o'qituvchi pedagogik mahoratga, yuqori darajadagi kasbiy sifatlarga hamda yetarli darajadagi pedagogik, psixologik bilimlarga ega bo'lmasa, ta'lim jarayonida qo'llanadigan vositalar qanchalik zamonaviy va xilma-xil bo'lmasin, kutilgan samarani berolmaydi.

4. Ta'lim-tarbiya jarayonida birgalikda o'qish metodlaridan foydalanish har bir o'quvchini kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, ularda shaxs sifatida mustaqillikni tarbiyalash, insoniy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuch va qobiliyatiga ishonch tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Hamkorlikdagi ta'lim har bir o'quvchining muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini sifatli bajarishga, o'quv materialini puxta o'zlashtirishga, birgalikda ta'lim olishga intilishni shakllantiradi.

5. To'ra Sulaymon ijodini o'quvchilar tomonidan puxta va samarali o'zlashtirilishiga erishishda "Bumerang", "Tarmoqlar", "Ven diogrammasi", "Kichik guruhlarda ishlash", "Charxpalak", kabi interfaol usullar eng qulay va qiziqarli metodlar ekani bois, ularni amaliyotga qo'llash ijobiy samara keltiradi.

UMUMIY XULOSALAR

1. Jamiyatimiz ma'naviy hayotini yuksaltirish bevosita yoshlarni ma'naviy barkamol insonlar sifatida voyaga yetkazish masalasi bilan chambarchas bog'lanadi. Ta'lim bosqichlarida el hurmatiga sazovor bo'lgan, hayot yo'li yoshlar uchun ibratga aylangan, asarlari esa ular ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi so'z san'atkorlari ijodini o'rgatish adabiy ta'limning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

2. She'riy asarlar ustida ishlanganda ham o'quvchining qalbini junbushga keltirgan mazmunga, ham she'rning yuksak san'at asari sifatida yozilganiga, ham tasvirga, ham tuyg'ular ifodasiga diqqati qaratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. Shoir ijodi namunalari vositasida o'quvchilar badiiy asar bilan tanishadilar. Uning ta'sir qudrati ila go'zallik va nafosat olamiga kirib boradilar. Badiiy asarga xos obrazlilikni, obrazli ifoda zamiridagi ma'nolarni anglashga o'rganadilar.

4. O'quvchilar ulug' shoir asarlarini emotsional ta'sir qudrati badiiy tahlil asosida kirishsalar, ular o'zaro bahs-munozara asnosida asarlarning mohiyatini teranroq anglaydilar.

5. Adabiyot darslari - ko'ngil mashg'ulotlari. She'rning o'qilish ohangi va mazmunidagi ta'sir zo'ridan mutolaadan so'ng sinfda ma'lum muddat sukunat hukmronlik qiladi. Ko'pchilik badiiy so'z ta'siridan birdaniga chiqib ketolmaydi. O'qituvchi bunday vaziyatda o'quvchilarni shoshirmagani, qandaydir soniyalar mobaynida o'z-o'zi bilan qolishlariga imkon bergani ma'qul.

6. O'quvchilar To'ra Sulaymon she'rlaridagi o'zbekona ruh, kishini yuksak ma'naviy marralarni egallashga chorlovchi da'vat tuyg'ularini anglab yetsalar, adabiy ta'limdan kutilgan samaraga erishiladi.

7. Ta'lim jarayonida hamkorlikda o'qitish usullardan foydalanishda o'quvchilarning imkoniyatlari bu usullarning maqsad va vazifalariga mos kelishi, o'qituvchining o'quvchilar guruhlariga ta'sir ko'rsata olish layoqatiga egaligi ta'lim samaradorligini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

8. Agar o'qituvchi pedagogik mahoratga, yuqori darajadagi kasbiy sifatlarga hamda yetarli darajadagi pedagogik, psixologik bilimlarga ega bo'lmasa, ta'lim

jarayonida qo'llanadigan vositalar qanchalik zamonaviy va xilma-xil bo'lmasin, kutilgan samarani berolmaydi.

9. Ta'lim-tarbiya jarayonida birgalikda o'qish metodlaridan foydalanish har bir o'quvchini kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, ularda shaxs sifatida mustaqillikni tarbiyalash, insoniy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuch va qobiliyatiga ishonch tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Hamkorlikdagi ta'lim har bir o'quvchining muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini sifatli bajarishga, o'quv materialini puxta o'zlashtirishiga, birgalikda ta'lim olishga intilishni shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni// “Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori” kitobida. – T.: Sharq, 1997. – B. 20-29.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”// “Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori” kitobida. – T.: Sharq, 1997. – B.31-61.
3. Mirziyoyev Sh. M. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida P/F. 2017. 12- yanvar.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. -592 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob yurtimiz bilan birga quramiz. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. -488 b.
6. Karimov I.A. Yuksak bilimli va intellektual rivjlangan avlodni tarbiyalash mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti. / “Ma’rifat” gazetasi, 2012 -yil.
7. Ahmedov S. Adabiyot darslarida epik janrlarni o‘rganish: Adabiyot o‘qituvchilariga yordam. – T.: O‘qituvchi, 1986. – 8-bet.
8. Aldjanova I.R. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda pedagogik innovatsiyalardan foydalanish. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2012. – 56 b.
9. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. – T.: ТГПУ, 2003. – 192 с.
10. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. – T., 2007. – 305 b.
11. Джарлеспесов Т.Е. Как создать творческую группу? – T.: «Fan va texnologiyalar» нашриёти, 2011. – 78 с.

12. Husanboyeva Q. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari. Ped.fan.dok. ...diss. avtoref. –T.: 2004.
13. Husanboyeva Q. Adabiyot-ma'naviyat mustaqil fikr shakllantirish omili. -T.: 2009.
14. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari /O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakulteti tinglovchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar. – T.: TDPU, 2004. – 44 b
15. Гин А. Приемы педагогической техники. –Москва: «Вита», 2000. С. 77.
16. Голиш Л.В., Файзуллаева Д.М. Педагогик технологияларни лойиҳалаштириш ва режалаштириш. – Т.: ТДИУ, 2010. – 149 б.
17. Gul bir yon, chaman bir yon...“Zamonaviy o'zbek adabiyoti taraqqiyotida To'ra Sulaymon ijodining o'rni va ahamiyati” nomli ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Farg'ona. 2019
18. Mahmudov R. To'ra Sulaymon. –Guliston. “Ziyo” nashriyoti, 2008.
19. Matchonov S. Umumta'lim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish. Ped. fan. dok...dis. –T.: 1998. -300 b.
20. Maktabda o'zbek tili va adabiyoti o'qitish masalalari. Ilmiy – metodik to'plam. Nashrga tayyorlovchi: S. Matchonov. –T.: TDPU. -1993. -80 b.
21. Mirhaydarov H. To'ra Sulaymon dostonlarida saj'. -T.: 2014
22. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari. Ped. fan. dok... diss. –T.: 1995. –253 b.
23. Olimov S, Ahmedov Sh, Qo'chqorov R. Adabiyot. 8-sinfi uchun darslik-majmua. 2-qism. –T.:. 2014.
24. Qodirov V. Mumtoz adabiyot: O'qitish muammolari va yechimlar. –T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2009. - 244 b.
25. Niyozmetova R.X. Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rganish metodikasi. -T.: “Fan”, 2007.

26. Sariboyeva M. Alisher Navoiy epik asarlarini interfaol usullarda o'rganish. – T.: “Adib” 2014. -136 b.
27. Tolipov O', Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005. – 205 b.
28. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi: (Oliy o'quv yurtlari filologiya yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma). – T.: Yangi asr avlodi, 2006. 80-b.
29. To'ra Sulaymon ijodida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya masalalari. O'zbekiston xalq shoiri To'ra Sulaymon tavalludining 85 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjuman materiallari. –Guliston. 2019.
30. To'xliyev B. O'zbek adabiyoti o'qitish metodikasi. -T.: “Yangi asr avlodi” 2006.
31. To'ra Sulaymon Сайхон. –T.: Шарқ. 2003. 223 б.
32. To'ra Sulaymon замондошлари хотирасида. –T.: Мумтоз сўз. 2017.
33. Usmonova D. Yuqori sinflarda Odil Yoqubov asarlarini o'rganish. //Til va adabiyoti ta'limi. 2002. №1. –B. 24-27.
34. Yo'ldoshev J.G'. Yangi pedagogik texnologiya: yo'nalishlari, muammolari, yechimlari //Xalq ta'limi j., 1999. 6, -4-6-b.
35. Yo'ldoshev Q. Yangicha pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. dok... diss. –T.: 1997. –306 b.
36. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. -T.: 2006.
37. Yo'ldoshev Q. Ikkinchi umr manzillari. -T.: Adabiyot va san'at nashriyoti., 2016.
38. Yo'ldoshev Q. Sariboyeva M. To'ra Sulaymon ijodida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya masalalari. O'zbekiston xalq shoiri To'ra Sulaymon tavalludining 85 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjuman materiallari. –Guliston. 2019. 12-b.
39. O'ljaboyev U. Xotiraga ko'chgan umrlar. -T.:2016.

Internetdan olingan adabiyotlar:

1. www.pedagogika.ru.
2. www.Google.co.uz
3. www.ta'lim.uz
4. www.kitob.uz
5. www.ziyonet.uz...